

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYAVIY MENEJMENT FAKULTETI

“MENEJMENT VA MARKETING” KAFEDRASI

ALIMOV ELYORBEC BAXTIYOROVICH

**«TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA AKTIV VA
PASSIVLARNI BOSHQARISH»**

«Moliyaviy menejment» fakulteti
dekani i.f.n., dotsent
Astanakulov Olim Tashtemirovich
« ____ » _____ 2015

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»
«Menejment va marketing»
kafedrasi mudiri i.f.n. Jumaev O.T.
« ____ » _____ 2015

Bitiruvchi :

5230200 -“Menejment”- ta’lim yo’nalishi
4 -kurs talabasi
Alimov Elyorbek Baxtiyorovich

Ilmiy rahbar:

i.f.n.O.Saydaxmedov

TOSHKENT - 2015

Men, Alimov Elyorbek Baxtiyorovich ushbu BMIning mustaqil bajardim, ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan holatimda BMI kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rektor buyrug'i bilan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishini bilaman.

_____ Alimov Elyorbek Baxtiyorovich

MUNDARIJA

KIRISH.....	bet 3
I BOB. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA AKTIV VA PASSIV OPERATSIYALARNING NAZARIY ASOSLARI.....	6
1.1 Tijorat banklarida aktiv va passiv operatsiyalari va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	6
1.2 Tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalari huquqiy asoslari.....	18
1.3 Bank faoliyatida aktiv va passivlar muvofiqligini ta'minlashda strategik rejalashtirish.....	25
II BOB. "ASAKA" DAVLAT-AKTSIYADORLIK TIJORAT BANKI AKTIV VA PASSIV OPERATSIYALARINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	33
2.1 "Asaka" Davlat-aktsiyadorlik tijorat bankining tashkil topishi tarixi hamda missiyasi.....	33
2.2 "Asaka" Davlat-aktsiyadorlik tijorat bankining tashkiliy strukturasi va bo'limlar faoliyati.....	37
2.3 "Asaka" Davlat-aktsiyadorlik tijorat bankining aktiv va passiv operatsiyalari tahlili.....	40
III BOB. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA AKTIV VA PASSIVLARNI SAMARALI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	46
3.1 Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida «Asaka» DAT bankining ishtiroki.....	46
3.2 Tijorat banklarida aktivlar va passivlarni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish.....	50
3.3 Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekiston bank tizimida aktiv va passiv operatsiyalarning rivojlanishi.....	55
XULOSA.....	59
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	62

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyati samaradorligini to‘xtovsiz oshirib borish jarayonini boshqarish amaliyotini takomillashtirish borasida bir qator dolzarb muammolarning mavjudligi va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishning zarurligi hamda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining dunyo mamlakatlari tijorat banklarining daromad bazasiga kuchli salbiy ta’siri yuzaga kelgan.

Bank resurslarini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalar banklarning passiv operatsiyalari deyiladi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarning passiv va aktiv - passiv schetidagi pul mablag‘larining salmog‘i oshib boradi. Banklarning passiv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda katta rol o‘ynaydi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklari kreditlash uchun zarur bo‘lgan-kredit resurslarini tashkil qiladi.

“Bank tizimidagi islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o‘rish sur‘atlarini ta’minlashda eng muhim omil bo‘ldi. Buning natijasida tijorat banklarining jami kapitali 25 foizga oshdi. Bank tizimining mustahkamlanishi 2014 yilda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini 12 foizdan 10 foizga, tijorat banklarining kreditlar bo‘yicha foiz stavkasini ham shunga mos ravishda kamaytirish uchun zarur imkoniyatlar tug‘dirdi.”¹

Mobilizatsiyalashgan pul mablag‘larini banklar mijozlarni kreditlash uchun va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash uchun foydalaniladi. Daromad olish maqsadida bank resurslarini joylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalar banklarning aktiv operatsiyalari deyiladi. Bankning aktiv operatsiyalarida asosiy o‘rinni ularning kredit yoki ssuda operatsiyalari egallaydi. Daromad olish maqsadida bank resurslarini joylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalar banklarning aktiv operatsiyalari deyiladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. “Xalq so‘zi”. 2015 yil 17 yanvar.

Bankning aktiv operatsiyalarida asosiy o‘rinni ularning kredit yoki ssuda operatsiyalari egallaydi. Ssudalar berilishining ta‘minotidan kelib chiqib kreditlar moddiy boyliklar, tovarlar va boshqalar bilan ta‘minlangan kreditlarga beriladi. O‘zbekistonda moliya-bank tizimi faoliyati samadorligini ta‘minlash, banklarda aktiv va passiv operatsiyalarini boshqarish masalasida ijobiy o‘zgarishlarga erishish nuqtai nazaridan kelib chiqib, bitiruv-malakaviy ishimizda bankning moliyaviy faoliyatini tashkil etish va boshqarish masalalarini tadqiq etish, uni rivojlanishi bilan bog‘liq shart-sharoitlarni o‘rganish o‘ta muhim bo‘lib ushbu ishimizning dolzarbligidan dalolat beradi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarida moliyaviy xizmat turlarini barqaror rivojlantirish, aktiv va passiv operatsiyalar sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Ishning maqsadidan kelib chiqib bitiruv-malakaviy ishda quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi:

- tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalarini tashkil etish mazmuni, mohiyati va ularning va xususiyatlarini yoritish;
- tijorat banklarining moliyaviy faoliyatining mamlakatimiz bank tizimida tutgan o‘rnini va ahamiyatini yoritish;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida zamonaviy bank tizmiga bo‘lgan talabhamda ularni rivojlantirish taraqqiyoti tahlil qilish;
- “Asaka” Davlat-aktsiyadorlik tijorat banki boshqaruvining tashkiliy-tarkibiy tuzilishi va ularning funksional vazifalarini ochib berish va tahlil qilish;
- “Asaka” Davlat-aktsiyadorlik tijorat bankining ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy rivojlanishi tahlilini amalga oshirish;
- tijorat banklarida moliyaviy boshqaruvni oqilona tashkil etishning asosiy yo‘nalishlarini asoslash;
- tijorat banklari moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish usullarini o‘rganish.

- Respublikamiz tijorat banklarida moliyaviy xizmatlarning joriy etish holatini baholash va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishning ob`yekti sifatida “Asaka” Davlat-aktsiyadorlik tijorat banki olingan.

Bitiruv malakaviy ishning predmetini iqtisodiyotni modrenizatsiyalash sharoitida tijorat banklari tomonidan yagi bank mahsulotlarini, xizmatlarini ishlab chiqish va joriy etish jarayonida sodir bo`layotgan moliyaviy munosabatlar yig`indisi tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining nazariy-amaliy ahamiyati. Tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalari bilan bog`liq muammolar bo`yicha o`zining muhim hissalarini qo`shgan xorijlik olimlari qatoriga V.Afanasev, V.A.Rube, L.S.Blyaxman, Yu.Kochevrin, V.Ramzes, L.I.Razumnova, A.Shulus, V.S.Puchkov, S.Ablyayev, F.Xayek, R.S.Bekov, Z.I.Blagova, A.A.Irbasheva va boshqalarni alohida ta`kidlab o`tish lozim. Ushbu muammolar bo`yicha O`zbekiston Respublikasida bank moliya-kredit masalalarini o`rganishda Respublikaning bir qator iqtisodchi olimlari Yo.A.Abdullaev, Sh.Z.Abdullaeva, T.S.Malikov, O.O.Olimjonov, X.R.Sobirov, A.G`.Xusanboyev, M.Sh.Sharifxo`jaev, A.O`.O`lmasov, A.Q.Qodirov, S.S.G`ulomov, D.G`.G`ozibekovlarni ko`rsatish mumkin. Iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlar shuni ko`rsatmoqdaki, tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalarini samarali boshqarish masalalari amaldagi huquqiy-me`yoriy hujjatlarda va ushbu sohadagi iqtisodiy adabiyotlarda hamda olimlarning ilmiy asarlarida to`liq o`z ifodasini topmagan. Demak, bu sohada jiddiy, ilmiy izlanishlar olib borish kerakligini taqozo etadi.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi. BMI tarkibiy jihatdan kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I BOB. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA AKTIV VA PASSIV OPERATSIYALARNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Tijorat banklarida aktiv va passiv operatsiyalari va uning o'ziga xos xususiyatlari

Bank resurslarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar banklarning passiv operatsiyalari deyiladi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarning passiv va aktiv - passiv schetidagi pul mablag'larining salmog'i oshib boradi. Banklarning passiv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda katta rol o'ynaydi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklari kreditlash uchun zarur bo'lgan-kredit resurslarini tashkil qiladi.

Tijorat banklarining passiv operatsiyalarining asosan to'rtta shakli mavjud:

1. Tijorat banklari qimmatbaho qog'ozlarini muomalaga chiqarish yo'li bilan resurslar yig'ish;
2. Bank foydasi hisobidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondlar summasini oshirish;
3. Boshqa kreditorlarning mablag'larini jalb qilish;
4. Depozit operatsiyalarni amalga oshirish.

Tijorat banklarining resurslari bankning o'z mablag'lari, jalb qilingan va emitentlashgan mablag'lar hisobidan shakllanadi.

Yuqorida keltirilgan passiv operatsiyalarning birinchi va ikkinchi shakllarida banklarning o'z mablag'lari yuzaga keladi va kolgan oxirgi ikki shaklida kredit resurslarning ikkinchi qismi jalb qilingan resurslar yuzaga keladi.

Banklarning o'z mablag'lariga bankning ustav kapitali, rezerv kapitali, maxsus fondlar, moddiy rag'batlantirish fondi, boshqa har xil tashkil qilingan fondlar va taqsimlanmagan foydasi kiradi. Amaliyotda bank passivlarining 20 foizi banklarning o'z mablag'lariga to'g'ri keladi.

Banklarning o'z mablag'lari ichida asosiy o'rinni bankning o'z kapitali egallaydi. Bankning o'z kapitali tarkibiga biz yuqorida keltirib o'tgan kapitalning bir qismi, yani ustav kapital, risklarni qoplash uchun tashkil qilingan rezerv fond, taqsimlanmagan foyda kiradi. Banklarning o'z kapitali bank

kreditorlarining manfaatini himoya qilish, bank faoliyatining barqarorligini ta'minlash, bank faoliyatini boshqarish kabi funksiyalarni bajaradi.

Bankning ustav kapitali summasi bank ustavida ko'rsatiladi va bank ishini boshlashning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Banklarning tashkil qilishning shakllariga qarab bankning ustav kapitali ham har xil tashkil topadi. Agar bank aksiyadorlik jamiyati tariqasida tashkil qilinadigan bo'lsa, ustav kapitali yoki fondi aksiyalar chiqarish va joylashtirish yo'li orqali tashkil topadi. Banklarning ustav kapitali summasi qonun yo'li bilan chegaralanmaydi. Banklarning barqaror faoliyatini taminlash maqsadida uning minimal miqdori belgilab beriladi.

Bankning ustav kapitali uning balansining passivida ko'rsatiladi. Ustav fondi summasining oshirilishi bank aksionerlari tomonidan umumiy majlisda hal qilinadi.

Banklarning ustav kapitali ularning majburiyatlarini bajarishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Bank kreditlari hisobidan banklarning ustav kapitalini tashkil qilish mumkin emas. Ustav kapitalini tashkil qilishda chetdan boshqa pul mablag'larini jalb qilish ham mumkin emas. Banklar tashkil qilinganda ustav kapitalining tarkibi moddiy mablag'lardan va pul mablag'laridan tashkil topadi.

Bank faoliyatining boshlang'ich bosqichlarida bankning o'z mablag'lari hisobidan birinchi navbatdagi bank harajatlari (yer, bino, asbob-uskuna, ish haqi) qoplanadi. Banklarning o'z mablag'lari uzoq muddatli aktivlarga qo'yilmalar qilishning asosiy manbasi hisoblanadi.

Odatda Markaziy bank tijorat banklari uchun banklarning o'z mablag'lari bilan chetdan jalb qilingan resurslar o'rtasidagi chegarani belgilab beradi.

O'zbekistonda bu nisbat 1:20 miqdorida o'rnatilgan.

Banklarning aksioner kapitali quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topishi mumkin. Bular:

a) o'z aksioner kapitali, bu kapital oddiy va imtiyozli aksiyalar chiqarish va sotish hisobidan, taqsimlanmagan fonda hisobidan yuzaga keladi;

b) har xil koʻzda tutilmagan harajatlarni va toʻlanmagan qarzlarni qoplash uchun tashkil qilingan rezervlar;

v) bankning uzoq muddatli majburiyatlari (uzoq muddatli veksel va obligatsiyalar) boʻlishi mumkin.

Banklarning rezerv kapitali yoki rezerv fondi foydadan ajratmalar hisobiga hosil boʻladi va koʻzda tutilmagan zararlar hamda qimmatbaho qogʻozlar kursining tushishi natijasidagi yoʻqotishlarni qoplash uchun moʻljallangan.

Taqsimlanmagan foyda - rezerv fondiga ajratmalar va dividendlar toʻlanganidan soʻng qoladigan foydaning bir qismidir.

Banklarning oʻz mablagʻlari tijorat banklari faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Banklarning oʻz kapitali hissasining kamayishi baʼzi hollarda banklarning sinishiga olib keladi.

AQShda kattaligi boʻyicha yigirmanchi oʻrinda turuvchi «Franklin neyshnl bank»ni sinishining sabablaridan biri, bu bankning oʻz kapitali hissasining bank balansida keskin qisqarishi boʻldi. Xuddi shu sabab, 1979 yil aktivida 250 mln. dollar va 44 ming omonatchisiga ega boʻlgan AQShdagi “Dnuverz neshnl benk of Chikago” bankining sinishining asosi hisoblanadi.²

Iqtisodiy yoki bank inqirozlari davrida passivlar va ularni joylashtirish sohasida etarli darajada oʻylab chiqilmagan siyosat banklarning sinishiga olib keladi.

1980 yillarning ikkinchi yarimida AQShda banklarning bankrotlik soni oʻsdi. 1984 yilda AQShda birinchi oʻnlikda turuvchi yirik banklardan biri boʻlgan “Kontinental Illinoys” bankining sinish holatining, hukumatning maxsus dasturi orqali oldi olindi.

Federal rezerv sistema boʻlgan AQSH Markaziy banki oʻz ixtiyoriga olgan bir necha milliard AQSH dollarini muvofiqlashtiribgina qolmay, balki depozitlarni sugʻurtalash Federal uyushmasi va AQSH moliya ministrligi bilan birga bank toʻlash qobiliyatini mustahkamlash sohasida kafili sifatida chiqdi.

Tijorat banklari sinishlarining eng koʻpi 1988 yilga toʻgʻri kelgan.

² www.ereport.ru rasmiy sayti

Iqtisodiy ko'tarilish tufayli AQShda tijorat banklari sinishining soni o'zining avvalgi holiga tushgan. Shu tufayli 1994 yilda faqatgina 13 ta tijorat banklari singan.

Shu bilan birga, muammoli, ya'ni moliyaviy holati beqaror bo'lgan banklar soni yuqoriligicha qolmoqda.

Bankning emitentlashgan mablag'lari. Banklar mijozlar mablag'laridan yetarli darajada uzoqroq foydalanishni amalga oshirishdan, manfaatdordirlar. Shu sababli banklar obligatsiya qarzlar, bank veksellari va boshqalarni chiqarish yo'li bilan o'z resurslarini miqdorini ko'paytirib boradilar.

Obligatsiya qarzlar obligatsiyalar ko'rinishida emitentlashadi. Hozirgi davrda chet el amaliyotida ikki valyutali obligatsiyalar uchraydi. Bu obligatsiyalar bo'yicha daromadlar obligatsiya egasi ixtiyoriga ko'ra milliy valyuta yoki AQSH dollarida yoki boshqa chet el valyutasida to'lanishi mumkin.

Banklar mijozlarning xohishiga qarab bir yilda ikki marta ularni to'lash majburiyatini o'z zimmalariga oldilar. Buning uchun mijoz ko'rsatilgan muddatdan bir hafta oldin mablag'larni olishi to'g'risida bankka xabar berishi shart. Bank passivlarida 90-yillar davomida bankning o'z mablag'lari miqdorining qisqarishi davom etdi va xorijiy mamlakatlar kabi bizning banklarimizda ham jalb qilingan resurslar salmog'i oshdi. Yangi resurslarni jalb qilishda yirik va mayda banklar foydasiga, nomutanosibliklar ko'paydi. Jalb qilingan mablag'larning yana bir turi bank balansida turgan va ularni qayta sotib olish to'g'risidagi kelishuv asosida sotiladigan qimmatli qog'ozlar hisoblanadi.

Mobilizatsiyalashgan pul mablag'larini banklar mijozlarni kreditlash uchun va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash uchun foydalaniladi. Daromad olish maqsadida bank resurslarini joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar banklarning aktiv operatsiyalari deyiladi. Bankning aktiv operatsiyalarida asosiy o'rinni ularning kredit yoki ssuda operatsiyalari egallaydi.

Ssudalar berilishining ta'minotidan kelib chiqib kreditlar moddiy boyliklar, tovarlar va boshqalar bilan ta'minlangan kreditlarga beriladi.

Banklarning mijozlarga beradigan ssudalari yoki kreditlarning muddatidan kelib chiqib, ular muddatli va onkol kreditlar (inglizchadan on call –talab bo'yicha)ga bo'linadi.

Ssudalar berilishining ta'minotidan kelib chiqib kreditlar moddiy boyliklar, tovarlar, vekselar, fondlar (qimmatli qog'ozlar) va boshqalar bilan ta'minlangan kreditlarga bo'linadi. Veksel operatsiyalari veksellarni qayd yoki hisobga olish bo'yicha operatsiyalar va vekselar bo'yicha ssudalar berish operatsiyalariga bo'linadi. Veksellarni qayd qilish deganda bank tomonidan ularni to'lash muddati tugagunga qadar veksellarni sotib olishni tushuniladi. O'z navbatida bank, agarda mablag'lar bilan ta'minlanganlikda qiyinchilik sezayotgan bo'lsa, Markaziy bankning hududiy boshqarmalarida berilgan veksellarni qayta hisobdan o'tkazishi mumkin. Vekselni hisobga olib, bank uning vaqtinchalik egasi bo'ladi va vekselni emitent qilgan yoki uni hisobga olish uchun taqdim qilgan shaxsga ma'lum miqdorda pul to'laydi. Bu operatsiya uchun bank mijozdan qayd etish foizi yoki diskont deb ataluvchi ma'lum foiz undiradi.

Diskont - bu vekselda ko'rsatilgan summa bilan veksel egasiga to'lanadigan summa o'rtasidagi farqdir. Ba'zi davlatlarda banklar o'zlarida alohida mijozlarning kreditlash qobiliyatini o'rganuvchi ayrim korxona va shaxslar veksel hisobi limitini o'rnatuvchi hisob bo'yicha qo'mitalarni tashkil etadilar.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, tijorat, moliyaviy va "do'stona" (bronza) veksellerini farqlash kerak.

Tijorat veksellari tovar munosabatlari asosida vujudga keladi. Ular boshqa veksellarga nisbatan ishonchlidir. Ko'pgina vekselar moliyaviy harakterga ega, ya'ni ular broker yoki makler tomonidan hisob foizini olish uchun muomalaga chiqariladi. Bular faqat bankdan mablag'lar olish uchun mo'ljallangan "shishirilgan veksellardir".

“Do‘stona veksellar” - bu ikki shaxsning har qanday tovar harakatisiz bankdan mablag‘ olish uchun bir-birlariga beradigan veksellardir. Tadbirkorlar tomonidan chiqarilgan veksellarni «bronza» veksellari deb ham atashadi. Bankning aktiv veksel operatsiyalariga aksept va avval operatsiyalar kiradi. Akseptli operatsiyada bank o‘zi akseptlashtirayotgan vekselni ishonchli mijozga chiqarish huquqini beradi. Ya’ni berilgan veksel bo‘yicha o‘z hisobidan to‘lovini kafolatlaydi. Shunday aksept kreditdan foydalanayotgan mijoz veksel haqini to‘lash uchun tegishli summani bankka to‘lash majburiyatini oladi.

Xalqaro miqyosda veksellar bilan bog‘liq bo‘lgan hamma operatsiyalar 1930 yilda qabul qilingan Jenevada tuzilgan konvensiya bilan qat’iy belgilanadi. Veksel bo‘yicha beriladigan kreditdan foydalanishning muhim shakli avval hisoblanadi. Bunda veksel bo‘yicha haq to‘lash bevosita veksel beruvchi bilan amalga oshirilladi. Avval esa haq to‘lashni kafolatlaydi. Aksept – avval operatsiyalarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular bir vaqtning o‘zida ham aktiv, ham passiv operatsiyalarga tegishli bo‘ladi. Bank avval veksel munosabatlarini hamda ularning boshqa banklardagi hisob-kitobini engillashtiradi. Chunki yirik avvalda hisob va qayta hisoblashda mutlaq tartibda amalga oshiriladi. Bir bank tomonidan avvallashgan veksellar boshqa bank tomonidan ham hisobga olinadi.

“Veksel bo‘yicha ssuda” operatsiyasida veksel egasi bo‘lib, avvalgi veksel oluvchi qoladi, bank esa uning ta’minoti ostida mijozga veksel qiymatining 50-70% miqdorida ssuda beradi. Banklar aktiv operatsiyalarining muhim turi tovarlar bo‘yicha ssudalar, ya’ni tovarlarni garovga qo‘yib ssuda olish hisoblanadi. Hujjatlar, variantlar (tovarlarni omborda saqlash javobgarligi bilan qilinganligi to‘g‘risidagi guvohnoma), temir yo‘l hujjatlari, konosamentlar (yukni kemaga qabul qilinganligi to‘g‘risidagi paroxod jamiyatlari guvohnomasi), yuklarni tashishi to‘g‘risidagp hujjat bo‘yicha ssudalar olish hisoblanadi. Tovarlarni bo‘yicha ssudalar bank tomonidan tovarning to‘liq bozor qiymatida emas balki uning bir qismi (odatda, 50-60% dan yuqori bo‘lmaydi) beriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy muammo bu tovarlar realizatsiyasi, chunki ishlab chiqarilgan va jo'natilgan tovar o'z haridorini topmasligi ham mumkin. Bozor sharoitida kredit munosabatlarining ma'muriy buyruqbozlik tizimidan farqi ham shudir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovarlar mo'l-ko'lhiligidagi oddiy talab emas, balki to'lovga qobiliyatli talab zarurdir. Bozor sharoitida tovar ta'minoti bo'yicha ssuda berayotgan kredit muassasalari risk qiladilar. Agar ssuda o'z muddatida qaytarilmasa, bank tovarlarni xat qilib o'z ixtiyoriga oladi, ularni sotishdan tushgan tushum hisobidan mijozning qarzini qoplaydi. Tovarlar bo'yicha ssudalar ko'pincha chayqovchilik maqsadlarida ishlatiladi.³

Ko'tarilish davrida, tovarlarga bo'lgan talab o'sganda, tadbirkorlar - baholarning o'sishini hisobga olib tovarlar realizatsiyasini ataylab to'xtatib, tovar zahiralarini to'playdilar. Bu xususan, xom ashyo tovarlariga ham tegishlidir. Bu holatda ssuda tovarlarni haqiqiy realizatsiyasini tezlatmasdan, balki sekinlashtiradi hamda chayqovchilik va tovarlarni ortiqcha ishlab chiqarilishining rivojlanishiga olib keladi.

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalarining yana bir turi fond operatsiyalaridir.

Turli qimmatli qog'ozlar uning ob'yekti bo'lib xizmat qiladi. Banklarning qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalarining 2 turi ko'proq qo'llaniladi. Bular qimmatli qog'ozlarni kreditning ta'minlanganligi uchun qabul qilish yo'li bilan ssudalar berish va ularni bank tomonidan o'z hisobiga sotib olish yo'li bilan operatsiyalar o'tkazish.

Qimmatli qog'ozlar ta'minoti bo'yicha ssudalar ularning to'liq bozor kursi qiymati bo'yicha emas, balki ularning ma'lum bir qismi (60-80%) bo'yicha beriladi. Qimmatli qog'ozlar soxta kapitalni ifodalasada, ular bo'yicha ssudalar haqiqiy tovar ishlab chiqarish bilan bog'langan jarayonga xizmat qiladi.

Undan tashqari qimmatli qog'ozlardagi bank investitsiyalari ham mavjud bo'lib, bu holda bank turli emitentlardan qimmatli qog'ozlarni sotib oladi, bank

³ Z.D.Niyozov. Pul kredit va banklar. Samarqand 2012 y.

qimmatli qog'ozlar portfeli vujudga keladi. Bank tomonidan qimmatli qog'ozlarning harid qilinishidan maqsad – bu qimmatli qog'ozlarni keyinchalik qayta sotish yoki kapitalning uzoq muddatga qo'yilishi yo'li bilan foyda olishdan iborat. Ohirgi yillarda respublikaning ko'pgina tijorat banklari yuqori foyda olish maqsadida, davlatning xazina majburiyatlarini ko'p miqdorda sotib olishdi.

Chunki qimmatli qog'ozlarning bu turi bankka kafolatlangan daromad keltiradi. Hozirgi kunda tijorat banklari tomonidan berilayotgan kreditlarning ta'minoti sifatida ko'chmas mulk, boshqa bank yoki sug'urta tashkilotining sug'urta kafolati ham qabul qilinishi mumkin. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari ichida kreditlash jarayoni asosiy o'rinni egallaydi. U quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- kredit olish uchun berilgan mijozning ariza talabnomasini ko'rib chiqish;
- qarz oluvchining to'lovga va kreditga layoqatliligini bank tomonidan
- o'rganib chiqilishi;
- kredit qo'mitasining qarori;
- kredit bitimini rasmiylashtirish;
- kredit berilishi;
- ssuda va u bo'yicha foiz to'lashni bank tomonidan nazorat qilinishi.

Kredit va uni to'lash jarayoni kredit shartnomasida ko'rsatilgan bo'lib, kredit va qarz oluvchi o'rtasidagi majburiyat va huquqlarni belgilab beradi. Unda kreditlashning maqsadi va ob'ekti, kredit miqdori, ssudani berish va uni to'lash muddati, kredit ta'minotining turlari, kredit uchun foiz stavkasi va boshqalar ko'rsatiladi. Ssudani to'lashni nazorat qilish bankning kredit portfelini muntazam tahlil qilish asosida olib boriladi va kreditlarning sifat darajasi aniqlanadi.

Tijorat banklari tomonidan beriladigan barcha kreditlar uning kredit portfelida o'z ifodasini topadi. Moliyalashtirish manbalariga va qarz oluvchining mintaqaviy o'rni va manziliga qarab tijorat banklarining kredit portfelini tasniflash mumkin. Tijorat banklari tasniflashni asosan milliy valyutada olib

boradilar va ba'zi hollarda qayta moliyalashtirish va o'z mablag'lari hisobidan beriladigan kreditlar, masalan, Milliy bank va shunga o'xshash banklarda qattiq valyutada ham ifodalanishi mumkin.

Hozirgi vaqtda markazlashtirilgan kreditlar davlatning qarorlariga asosan ustivor tarmoqlarni rivojlantirish uchun milliy valyutada beriladi qayta moliyalashtirish va bankning o'z mablag'lari hisobidan beriladigan kreditlar mijoz kreditga layoqatli bo'lganda milliy valyutada yoki xorijiy davlat valyutasida berilishi mumkin.

Tijorat banklari faoliyatida turli xil risklar uchrab turadi, lekin ularning faoliyatiga ko'proq kredit riski, likvidlik riski va foiz stavkasi ta'sir qiladi. Tijorat banklar faoliyatining asosii qismi kreditlar berish va shu asosda foyda olishga yo'naltirilgan bo'lganligi uchun ular faoliyatida bu risklarning salmog'i ham yuqori bo'ladi. Tasniflangan kreditlarning qaysi guruhga kirish darajasi tez sotiladigan aktivlar va yuqori likvid mablag'larning mavjudligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1998 yil 9 noyabrda tasdiqlangan 242-sonli "Aktivlar sifatini tasniflash, mumkin bo'lgan yo'qotishlar bo'yicha tijorat banklari tomonidan rezervlar tashkil qilish va undan foydalanish qoidasi"ga asosan tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar yuqorida keltirilgan mezonlar bo'yicha "yaxshi", "standart", "substandart", "shuxbali", "umidsiz" yoki "ishonchsiz" kreditlarga tasniflanadi.

Yaxshi kreditlar. Kreditning bunday sifatda baholanishi, mijozning aktivlari, ularning holati bo'yicha hech qanday gumon yo'qligidan dalolat beradi. Moliyaviy jihatdan barqaror, xo'jalik oboroti yuqori darajada o'z kapitali bilan ta'minlangan, yuqori rentabellik ko'rsatkichlariga ega, debitor va kreditor qarzlarning aylanish muddati qisqa bo'lishi lozim. Bu kredit egalari moliyaviy barqaror xo'jalik sub'yekti bo'lib, u yuqori darajada ta'minotga ega bo'ladi. Bunda asosiy e'tiborni qarz oluvchining avvalgi faoliyatidagi majburiyatlariga munosabatiga, oson realizatsiya qilinuvchi aktivlar va yuqori likvidli mablag'lardan tashkil topgan ishonchli kredit ta'minotiga qaratish kerak. Ushbu

toifadagi kreditlarda qaytarmaslik belgilari mavjud emas, banklar uchun zarar ko'rish imkoniyatlari minimal darajada bo'ladi, kreditning ta'minlanganligining (garov, kafolat va boshqalar) sifati, ta'minlanganlikka olingan mol-mulk, garov va boshqalarning tarkibida tez pulga aylanadigan aktivlar va yuqori likvid mablag'lar salmog'ining ko'pligi e'tiborga olinadi. Kredit bo'yicha olingan ta'minlanganlik (garov, molmulk va boshqalar) kredit summasi va u bo'yicha foiz stavkalarini to'lashga yetarli bo'lgandagina kredit ta'minlangan deb baholanishi mumkin.

Kredit bo'yicha barcha hujjatlar qonun bo'yicha rasmiylashtirilishi va bank zarur bo'lganda kreditni undirib olish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur (kreditning qaytarilmaslik ehtimoli cheklangan bo'lsada) kreditning bu guruhida mijozning faoliyatidagi ikki asosiy omilga alohida e'tibor berish zarur.

Bular:

- mijozning oldingi faoliyatidagi o'z majburiyatlariga bo'lgan munosabati,
- kredit bo'yicha aniq ta'minganlikning (garov, kafolat, mulk va boshqalar) bo'lishi va uning to'g'ri rasmiylashtirilganligi.

Standart kreditlar. Bunday kreditlar bo'yicha vaqti-vaqti bilan kreditni o'z vaqtida qaytara olmaslik sharoiti yuzaga keladi. Lekin kreditni belgilangan muddatda to'lay olmaslik bo'yicha uning to'lov muddatining uzaytirilishi bir martagina bo'lishi va kreditni va u bo'yicha foizlarni to'lay olmaslik davri 30 kundan 60 kungacha, to'liq ta'minlanmagan kreditlar uchun 30 kun bo'lgan muddatdan oshmasligi lozim. Olgan krediti standart kredit deb topilgan mijozlarning moliyaviy ahvoli odatda barqaror bo'ladi, lekin ma'lum vaqtinchalik sabablar tufayli uning faoliyatida salbiy moliyaviy holat yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Bunday kreditlar qatoriga yaxshi rasmiylashtirilmagan kreditlar, garov, ta'minlanganligi bo'yicha to'g'ri hujjatlashtirilmagan yoki hujjatlar etarli bo'lmagan kreditlar ham kirishi mumkin. Bu kreditlar bo'yicha 10 foiz atrofida rezerv tashkil qilinishi zarur.

Substandart kreditlar. Bu guruhga kiruvchi kreditlar ularning sifati yetarli darajada emasligini bildiruvchi aniq belgilarga ega bo'ladi. Bu asosan

kreditlarning bankka qaytib to'lanishida ma'lum kamchiliklar mavjudligi va kreditning ta'minlanganligi sifatida qabul qilingan boshlang'ich manbalar kreditni to'lash uchun etarli bo'lmasligi natijasida qarzni to'lash uchun qo'shimcha manbalarni topish zarurligini ko'rsatadi. Substandart kreditlar qarz oluvchining ishonchli moliyaviy ahvoli va to'lov qobiliyatining yuqori darajasi bilan himoyalangan. Bu kredit kreditning ta'minlanganligini tashkil qiluvchi manbalar ma'lum risklar bilan bog'liqligini, kreditning joriy holati bo'yicha etarli axborotning mavjud emasligi, garov hujjatlarida ma'lum kamchiliklar mavjudligi bilan harakterlanadi. Bu kredit bo'yicha 60 kundan 30 kungacha to'lanmagan qarzlarning mavjud bo'lishi mumkin. Bu kreditlar moliyaviy ahvoli barqaror bo'lmagan, korxonaning to'lovga layoqatliligida kamchiliklar bo'lgan hollarda yuzaga keladi. Substandart kreditlar bo'yicha 25 foiz kreditlar to'lanmasligi mumkin deb xulosa qilinishi va bu kreditlar bo'yicha to'lanmagan qarzlarni qoplash uchun 25 foiz rezerv tashkil qilinishi mumkin.

Shubhali kreditlar. Bu kreditlar yuqorida keltirilgan guruhlardagi kreditlarning barcha salbiy tomonlarini o'zida ifoda qilishi bilan birgalikda to'liq ta'minlanganlikka ega bo'lmagan, to'lanish ehtimoli kam bo'lgan kreditlar kiradi.

Bu kreditlar bo'yicha olingan kredit yaxshi ta'minlanganlikka ega bo'lganida asosiy qarz bo'yicha foizlarni to'lash muddati 180 kundan ortiq muddatga kechiktirilgan bo'lsa, zarar ko'rish imkoniyati yuqori, biroq ushbu kreditlarning sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lgan omillar mavjudligi sababli ularni yo'qotilgan deb tasniflanishi vaqtincha to'xtatiladi. Bu guruhga kiruvchi kreditlar bo'yicha 50 foizgacha rezerv tashkil qilinishi lozim.

Ishonchsiz kreditlar. Bu kreditlar bo'yicha qarzlarning to'lanish ehtimoli deyarli yo'q. Agar kredit to'liq ta'minlamagan bo'lsa, eng kamida bitta muammoli tavsifga ega bo'lsa, to'lov muddati 360 kundan oshgan bo'lsa hamda kreditni "shubhali" deb tasniflab bo'lmasa bunday aktivlar "ishonchsiz" deb hisoblanadi. Bu aktivlar juda past qiymatga ega bo'lib, ularni aktivlar sifatida hisobga olib borish maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun banklar bu

kreditlarni o'z balanslarida zarar sifatida hisobga olishlari mumkin. Ishonchsiz kreditlar foyda hisobiga buning uchun foyda etmagan hollarda esa bank sarmoyasi hisobiga balansdan chiqarilishi mumkin. Bank uchun bu kreditlar zarar sifatida tasniflanishi mumkin.

Bir yil va undan ortiq muddatda harakatsiz bo'lgan aktivlar, muddati o'tgan va foizlar bo'yicha qarzlar zarar sifatida tavsiflanishi mumkin. Shu sababli bu guruhga kiruvchi kreditlar bo'yicha 100 foiz rezerv tashkil qilish lozim bo'ladi.

Tijorat banklarining kredit portfelini berilgan ssudalarning ta'minlanganlik darajasiga qarab quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- birinchi darajada ta'minlangan;
- boshqa ta'minotga ega bo'lgan;
- to'liq ta'minlanmagan;
- ta'minlanmagan ssudalarga bo'linadi.

Birinchi darajada ta'minlangan kreditlar guruhiga to'liq ta'minlangan kreditlar kiradi. Ular quyidagilar bilan ta'minlanadi:

- O'zbekiston Respublikasi hukumati kafolati;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kafolati;
- O'zbekiston Markaziy banki roziligi bilan birinchi sinf xorijiy banklari kafolati;
- erkin ayirboshlanadigan valyutadagi garov;
- O'zbekiston Respublikasi davlat qimmatli qog'ozlari ko'rinishidagi garov;

- standartlashtirilgan qimmatbaho metallar qo'yilmalari ko'rinishidagi garov Boshqa ta'minotga ega bo'lgan ssudalar guruhiga quyidagilar bilan ta'minlangan kreditlar kiradi:

- mol-mulk garovi;
- qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagi garov;
- boshqa huquqiy va jismoniy shaxslarning kafolat xati va boshqalar kiradi.

1.2. Tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalari huquqiy asoslari

Har qanday xo‘jalik sub‘yektlari kabi tijorat banklarining faoliyatini pirovard maqsadi daromad topishdan iboratdir. Xalqaro amaliyotda tijorat banklarining o‘zlik va jalb etilgan mablag‘lardan ma’lum daromad topish uchun olib boradigan faoliyati aktiv operatsiyalar deb nomlanadi. O‘z mohiyatiga asosan tijorat banklarining o‘zlik va yuridik hamda jismoniy shaxslarning vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini jalb etilgan mablag‘laridan o‘z nomidan ma’lum daromad topish uchun olib boradigan faoliyati aktiv operatsiyalar hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda tijorat banklarining olib boradigan aktiv operatsiyalari juda turli tumandir, lekin iqtisodiy adabiyotlarda aktiv operatsiyalar o‘z mohiyatiga ko‘ra quyidagi asosiy guruxlarga ajratiladi:

- yuridik va jismoniy shaxslarga turli muddatlarga, turli maqsadlarga ham turli shartlar asosida kreditlar berish;
- bank mijozlariga turli vositachlik xizmatlarini ko‘rsatish;
- lizing, faktoring va forfeyting operatsiyalarini amalga oshirish;
- investitsiya loyixalarini amalga oshirish;
- davlat va boshqa yuridik shaxslarning qimmatli qog‘ozlariga o‘z nomidan va o‘z hisobidan investitsiyalar qilish;
- bank mijozlariga kassa xizmatlarini ko‘rsatish;
- mijozlarga boshqa turdagi an’anaviy va noan’anaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish.

Tijorat banklari aktiv operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida amaldagi qonunchilik tomonidan belgilangan me‘yorlarga amal qilishlari lozim.

Tijorat banklari o‘zlarining faoliyati uchun o‘rnatilgan likvidlik darajasini saqlab turishlari hamda aktiv operatsiyalarni turlari bo‘yicha yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan qaltisliklarni (risklarni) oqilona taqsimlashlari shart. Amaliyotda daromad keltirish darajasiga asosan tijorat banklarining aktivlari asosan ikki guruhga, ya’ni daromad keltirmaydigan va daromad keltiradigan aktivlarga ajratadilar. Albatta ushbu guruhlash aktivlari ikki asosiy guruhga ajratiladi.

Lekin bizning fikrimizcha, ushbu guruhlashda ayrim omillar inobatga olinmagan. Masalan kassadagi pul aktivlari bank likvidligini ta'min-laydigan lekin daromad keltirmaydigan aktivga kiritilgan. Bizning fikrimizcha, tijorat banklari aktivlarini quyidagi uch guruxga ajratish maqsadga muvofiq bo'lar edi:

1. Daromad keltirmaydigan, lekin bank faoliyatini ta'minlaydigan aktivlar. Ushbu aktivlar tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobraqamidagi majburiy zahiralar summasi, asosiy vositalar va kam baholi tez eskiruvchan buyumlar hamda boshqa aktivlar.

2. Kam daromad keltiradigan, lekin bank likvidligini ta'minlaydigan aktivlar. Ushbu aktivlar tarkibiga kassadagi pul mablag'lari va unga tenglashtirilgan hujjatlar, davlat o'rta muddatli hazina majburiyatlari, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari kiradi.

3. Yuqori daromad keltiradigan, lekin yuqori qaltislik darajasiga ega aktivlar. Ushbu aktivlar tarkibiga kreditlar, lizing, faktoring, forfey-ting, korporativ qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar, xorijiy valyutalar va boshqa aktivlarning kiritish mumkin. Tijorat banklarining aktivlarini yuqoridagi tartibda guruxlash, bizning fikrimizcha aktivlarni mohiyatini to'laroq ochib beradi deb hisoblaymiz.

Bank aktivlari quyidagi asosiy pozitsiyalardan tashkil topgan:

Naqd aktivlar. Bank moliyaviy hisobotining birinchi aktivi odatda naqd pul va "Nostro" tipidagi depozitlar hisoblanadi. Ushbu moddani, ya'ni bank kassalaridagi naqd pullar, boshqa banklarda joylashtirilgan barcha depozitlar, inkassatsiya qilish jarayonidagi mablag'lar hamda Markaziy bankdagi majburiy zahira fondidagi mablag'larni ko'p holatlarda «birlamchi zahiralar» deb atashadi. Chunki ko'zda tutilmagan holatlarning yuzaga kelishi va majburiyatlar tezlik bilan hal qilinishi zarur bo'lgan paytda ushbu aktivlar bankning «birinchi himoya chizig'i» bo'lib xizmat qiladi. Odatda, bank bu moddani imkon qadar past darajada ushlab turishga harakat qiladi, negaki naqd pul mablag'lari deyarli daromad keltirmaydi.

Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar. Bu modda bankning "ikkinchi himoya chizig'i" bo'lib, likvidli qimmatli qog'ozlarga moliyaviy qo'yilmalardir.

Bu pozitsiyani ko'p hollarda "ikkilamchi zahiralar" deb atashadi. Unga odatda davlat qisqa muddatli qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar kiradi. Shuningdek, bu pozitsiyada pul bozorining qimmatli qog'ozlar, boshqa banklardagi muddatli foizli depozitlar hamda tijorat qimmatli qog'ozlari aks ettirilishi mumkin. "Ikkilamchi zahiralar" naqd pul va kreditlar o'rtasidagi pozitsiyani egallab, ma'lum miqdordagi daromad olishni ta'minlaydi va likvidlikni ta'minlashning ikkilamchi manbasidir.

Kreditlar. Hech bir shubhasiz banklarning eng yirik aktivlari bo'lib kreditlar hisoblanadi va aksariyat hollarda jami aktivlar hajmining diyarli uchdan ikki qismini tashkil qiladi. Balansda kreditlar bo'yicha ma'lumotlar bo'yicha ma'lumotlarni aks ettirishda ikkita raqam ishlatiladi. Birinchisi, kredit-brutto bo'lib, unda bank tomonidan berilgan jami kreditlar miqdori (jumladan, prolongatsiya qilinganlari) ko'rsatiladi. Ushbu summadan kreditlar bo'yicha joriy va ehtimoliy zararlar zahirasi summasini chegirib tashlasak sof kredit, ya'ni kredit-netto aniqlanadi.

Bank hisobida yuritiladigan kreditlar kategoriyasidan biri harakatsiz yoki muddati o'tgan va kamaymaydigan kreditlardir ("o'stirmaslik" maqomi berilgan aktivlar). Mavjud normativ hujjatlarga ko'ra, o'rnatilgan to'lov grafigiga nisbatan 180 kun davomida to'lanmagan kreditlar shu kategoriyaga kiritiladi.

Kredit harakatsiz (umidsiz) deb topilganidanoq, hisoblangan, ammo bank tomonidan kirim qilinmagan foizlar daromaddan chegiriladi yoki balans hisobvaraqlaridan ko'zda tutilmagan xolatlar hisobvaraqlariga o'tkaziladi.

Kelgusida kredit bo'yicha to'lovlar amalga oshirilgunga qadar, foizlarni hisoblash va hisobga olish to'xtatiladi. Shuni e'tiborga olish kerakki, to'lovlar birinchi navbatda hisoblangan, lekin olinmagan foizli daromadlarni, keyingi navbatda esa kreditning asosiy qarzini to'lashga yo'naltiriladi (O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Foizlarni o'stirmaslik to'g'risida"gi Nizomi,

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 24 yanvarda 1304 son bilan ro'yxatga olingan).

Mijozlarning akseptlar bo'yicha majburiyatlari. U odatda, yirik banklar o'z mijozlari uchun akseptni moliyalashtirish ko'rinishidagi kredit berilishi mumkinligini ko'zda tutadilar. Bu maqsadda ishlatiladigan mablag'lar aktivlar bo'limida akseptlar bo'yicha to'lanmagan majburiyatlar nomi bilan hisobga olinadi. Bu moddaning summasi bank mijozni kreditlash yuzasidan (odatda, xorijdan tovarlarni import qilishda yordam berish uchun) qo'llashga rozilik bergan paytida ko'payadi. Bu holatda bank aksept (ya'ni akkreditiv) berish yo'li bilan uchinchi shaxsga (masalan, xorijiy tovar eksporterini) kelgusida, aksept bergan bank ma'lum summani to'lashi zarurligi ko'rsatilgan aylanma vekselni yozish huquqini o'tkazadi. Belgilangan muddat yoki u kelgunga qadar bankning aksept olgan mijozi ko'rsatilgan summani to'liq to'lashi kerak. O'z navbatida, bank – emitent o'rnatilgan muddatda aylanma vekselning yuza tomonida ko'rsatilgan summani ushbu moliviy instrument egasiga to'lashi zarur bo'ladi.

Bugungi kunda bank akseptlari xalqaro savdoni moliyalashtirishda keng qo'llaniladi.

Ikkinchi darajali aktivlar. Bank aktivlari jumlasiga bino va inshootlarning sof qiymati (amortizatsiya ajratmasi hisobga olingan holda), shu'ba korxonalarga investitsiyalar va boshqa uncha ahamiyatli bo'lmagan pozitsiyalarni kiritishimiz mumkin. Moddiy mablag'larning qiymati, ya'ni bino va uskunalarga sarflangan fiksatsiyalangan aktivlar odatda aktivlar hajmida kam salmoqni tashkil qiladi.

Bank xizmatlarining ulgurji iste'molchilariga turli xo'jalik yurituvchi xo'jalik sub'ektlari sanoat, savdo, umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jalik korxonalari tashkil etadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Banklar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun taqdim etilgan kreditlar bir yilda 36 foizga, tadbirkorlar va xususiy shahslarga berilgan

mikrokreditlar miqdori esa 70,0 foizga ko'payadi. Ma'lumki kichik biznes tarkibida asosiy ulushni fermer va dehqon xo'jaliklari egallaydi. Hozirda respublikamizda 200,0 mingdan ortiq fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyat ko'rsatib kelmoqda va ularda 1,5 million kishi mehnat qilmoqda.⁴ Xuddi ushbu omil esa banklarning kredit faoliyatiga ta'sir ko'rsatmoqda. Buning asosiy sababi kichik biznes va xususiy tadbirkorlarga amaldagi qonunchilikka asosan imtiyozli kreditlar ajratish ko'zda tutilgan. Imtiyozli kreditlar bo'yicha foiz stavkasi nisbatan past belgilangan.

Tijorat banklarining passiv operatsiyalarini tahlili.

Tijorat bankini boshqa barcha xo'jalik yurituvchi tashkilot va muassasalaridan farqi hamda faqatgina o'ziga xos xususiyatiga ega muassasa deb nomlash mumkin. Tijorat banki davlatning, yuridik shaxslarning hamda aholining vaqtincha bo'sh pul mablag'larini qaytarib berishlik, to'lovlilik va muddatlilik shartlari asosida jamlab ulardan o'z nomidan ma'lum daromad olish maqsadida joylashtirish faoliyatini amalga oshiradigan muassasadir. Tijorat banklarining o'z faoliyatini olib borish uchun pul resurslarining asosiy qismini, ayrim hollarda 90 foizgacha aynan jalb etilgan mablag'lar tashkil etadi va bu ularni boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan ajratib turadi. Tijorat banklarining asosiy faoliyati bu vaqtincha bo'sh pul mablag'larini kreditorlar va qarzдорlar o'rtasida hamda sotuvchilar va haridorlar o'rtasida yurishishini vositachisi sifatida olib borish hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotda pul mablag'larini joylashtirish yuzasidan faoliyati ixtisoslashgan moliya-kredit institutlari, ya'ni investitsiya fondlari, kredit uyushmalari va sug'urta kompaniyalari ham olib boradilar. Lekin tijorat banklarining mamlakat moliya bozorida faqatgina o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

- birinchidan, tijorat banklari faoliyati uchun qarz majburiyatlari yuzasidan ikki tomonlama tasnif mavjud. Ular birinchi tomondan yuridik va jismoniy shaxslar uchun muomalaga o'zlarining qarz majburiyatlarini, ya'ni aksiyalar,

⁴ www.stat.uz rasmiy sayti ma'lumotlari.


depozit sertifikatlari, depozit-jamg'arma sertifikatlari, obligatsiyalar va veksellar chiqaradilar. Ikkinchi tomondan esa tijorat banklari o'z faoliyatida qo'shimcha daromad olish maqsadida boshqa elementlarning, shu jumladan davlatning muomalaga chiqargan qarz majburiyatlarini (aksiyalar, obligatsiyalar, hazina majburiyatlari) sotib oladilar;

- ikkinchidan, tijorat banklari o'z nomidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar (obligatsiyalar, depozit va depozit jamg'arma sertifikatlari, veksellar) bo'yicha qat'iy belgilangan foizlar bo'yicha sarmoyalarga daromad to'lanishi majburiyatini oladilar. Investitsiya fondlari esa daromad to'lanishi yuzasidan barcha qaltisliklarni sarmoyadorlar zimmasiga yuklaydilar.

Tijorat banklarining resurs bazasi ikkita manbadan tashkil topadi:

- o'z mablag'lari (aksiyadorlik kapitali) va unga tenglashtirilgan resurslar (qo'shimcha kapital, taqsimlangan foyda, zahira fondlari);
- jalb qilingan mablag'lar.

Biz ilmiy izlanishimizning quyidagi chizmasida tijorat banklarining resurs bazasini tarkibini keltiramiz. (1- rasm)



1-rasm. Tijorat banklarni resurs bazasining tarkibi⁵

Bank biznesining asosiy xususiyati shundan iboratki, tijoart banki asosan o'zga kapital hisobidan faoliyat yuritadi. Xalqaro amaliyotda tijorat banklarining resurs bazasini atigi 10,0 foizga yaqinligi o'z mablag'lari va qolgan 90,0 foizini chetdan jalb qilingan mablag'lar tashkil etadi. Boshqa xo'jalik sub'ektlarda

⁵ Rashidov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. T.: TDIU, 2010. 398 b.

buning aksi bo'lib, ular resurs bazasining 60,0 foizidan ortig'ligini o'z mablag'lari egallaydi.⁶

Tijorat banklari yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, o'z faoliyatini yuritish uchun chetdan qo'shimcha mablag'lar jalb etishlari lozim. Ushbu faoliyat tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslardan vaqtli to'lovlik hamda muddatlik shartlari asosida jalb etish orqali o'z resurs bazasini shakllantirish bilan bog'liq faoliyat passiv operatsiyalar hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda tijorat banklarining passiv operatsiya-larini turli shakllari mavjud.

Chetdan jalb qilingan mablag'lar jalb qilinishi manbalariga qarab quyidagilarga ajratiladi:

- omonatlar va depozitlarni jalb etish (talab qilib olunguncha, muddatli);
- boshqa tijorat banklaridan va Markaziy bankdan kreditlar olish (banklararo kredit);
- muomalaga qimmatli qog'ozlar chiqarish (aksiyalar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlari, veksellar);
- qimmatli qog'ozlarni qaytib sotib olish sharti bilan sotish shart nomalarini ("Repo" operatsiyalarini) amalga oshirish;
- Yevronota va Yevrobondlar bozorida ishtirok etish;
- bank akseptlarini (avval) sifatida sotish va boshqalar.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari qaror topishi va rivojlanishi jarayonida shakllangan va rivojlanayotgan mazkur bank muassasalari moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning barcha jabhalarini qamrab oladi va uning o'ziga xos tomonlarini aks ettiradi.

Shuning uchun ham, banklarning rivojlanish tarixiga e'tiborning karatilishi, ancha keng doiradagi masalalar bilan shug'ullanuvchi va zamonaviy bozor iqtisodiyotida jiddiy rolga ega bo'lgan yirik moliya-kredit muassasasi faoliyatining iqtisodiyot tarmoqlari rivojini ta'minlashdek muhim vazifaga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi.

⁶ Finansi, dengi, kredit. Uchebnik.Pod red. dots. O.V.Sokolovoy. M.: "YURIST" 2001. 138 b.

1.3. Bank faoliyatida aktiv va passivlar muvofiqligini ta'minlashda strategik rejalashtirish

Strategik reja - nizom faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha kredit muassasasi missiyasi va uni amalga oshirishning aniq strategiyasini aks ettiruvchi strategik rejalashtirishning juda muhim natijasidir. Strategik reja bank rahbariyati va etakchi mutaxassislari tomonidan strategik rejalashtirish metodologiyasining standart texnologiyalariga tayanilgan holda ishlab chiqiladi va o'z tarkibiga sakkiz bosqichni oladi.

1 - bosqich. Bank missiyasini tanlash.

Bank missiyasi quyidagilarni aks ettiradi:

- bank biznesining ustuvor yo'nalishi (u tegishli raqobatbardoshlik darajasini ta'minlashi zarur);

Misol: «Bank biznesining ustuvor yo'nalishi kichik biznes sub'ektlariga xizmat ko'rsatilishi sohasidagi tor ixtisoslashuv bo'lib, mintaqaning barcha kategoriyadagi tadbirkorlariga ko'rsatilayotgan xizmatlar jazibadorligini ta'minlaydi».

- bank nizom faoliyatining har bir yo'nalishi bo'yicha strategik maqsadlar va ularni amalga oshirish bo'yicha yondashuvlar ro'yxati;

Misol: «Bank xodimlar strategiyasining ustuvor maqsadi mehnat jamoasida «korporativ iqlim» munosabatlarini shakllantirish va uning saqlanishini ta'minlashdir. Qo'yilgan maqsadga (amaliy jihatdan) ushbu strategiya amalga oshirish jarayonida «inson kapitalini rivojlantirish» doktrinasining barcha talablarini bajarilishi bilan erishiladi».

Bank missiyasini tanlashga ta'sir o'tkazuvchi omillar:

- bank tarixi (birinchi navbatda, inqiroz va noan'anaviy vaziyatlarda strategik xatoliklardan saqlanish imkoniyatini beruvchi bozordagi faoliyat tajribasi);

- bank madaniyati (faoliyatni boshqarishda sohasida yuzaga keladi);

Izoh: bank tashkiliy - boshqaruv madaniyatining asosiy me'zonlari quyidagilardan iborat:

- asosiy moliyaviy operatsiyalarni boshqarishning rasmiylashtirilgan texnologiyalarining mavjudligi;
- samarali informatsion ta'minot (bank razvedkasining ba'zi elementlarini o'z tarkibiga oladi);
- "inson kapitalini rivojlantirish" doktrinasi doirasida aniqlangan metodologiya asosida xodimlarni boshqarish;
- mijozlarga xizmat ko'rsatish va banklararo muomalalarda informatsion texnologiyalardan keng ko'lamli foydalanish.
- bankning rejalashtirilayotgan yoki tarixan shakllangan tashkiliy strukturasi.

Misol: boshqaruvning an'anaviy tashkiliy strukturasi ega bo'lgan bank o'z missiyasida (xizmatlarning umuman yangi sifatini mijozlarga taklif qilishi mumkin bo'lmaganligi sababli) ambitsioz maqsadlarni quyishi kerak emas.

Bank asosiy muassislarning qimmatliklari:

- nazariy (asosiy muassislarning bank ishi va boshqaruvning nazariy asoslarin bilan tanishligi darajasini aks ettiradi) Odatda, muassislar boshqaruv nazariyasi asoslarini qanchalik yaxshi bilishsa, bankni operativ boshqarish ishlariga shunchalik kam aralashadi;
- iqtisodiy (daromad olinishi bilan bir qatorda bank faoliyatining boshqa maqsadlariga erishi zarurligi muassislar tomonidan anglanish darajasini aks ettiradi. Rossiya bank tizimi amaliyotidan bizga ma'lumki, o'tgan asrning 90 - yillarida aksariyat banklar muassislari tomonidan "ko'p va darhol" printsipining qo'llanilishi banklarning moliyaviy mustaxkamligiga putur yetkazdi.;
- ijtimoiy (muassislarning bankning yollanma xodimlari va ma'muriyati o'rtasidagi munosatlariga qarashlarini aks ettiradi). Muassislarning zamonaviy bank faoliyatiga «inson omili» ning ta'siri tushinishi darajasiga qarab, bank ma'muriyati tomonidan (kelgusida xodimlar strategiyasi asosida turuvchi) mehnat munosabatlarini tashkil qilishning bazaviy doktrinalaridan biri tanlanadi.

- estetik (umum madaniy ustuvorliklarni aks ettiradi). Bank tomonidan moliyalashtiriladigan madaniy tadbirlar (kontserlar, ko'rgazmalar va x.k.) bankning ijobiy imijini shakllantirishning an'anaviy instrumenti hisoblanadi. Bunda ko'llab - quvvatlashning aniq ob'yektining (simfonik orkestr yoki rok - guruhi) tanlanishi, ko'p holatlarda muassislarning estetik dunyoqarashiga bog'liq.

- diniy (muassisning qaysi dinga e'tiqod qilishini aks ettiradi). Bu omil homiylik faoliyati, shuningdek bank rahbariyati tanlovi amaliyotida ko'plab uchraydi (qonunchilik normalarida man qilingan bo'lsa).

Bank missiyasiga qo'yilgan metodologik talablar:

- bankning real imkoniyatlarini hisobga olish - bosh talab, u kuchlarning tarkoklashishi (missiyaning juda murakkabligi yoki masshtabligi oqibatida), bir paytning o'zida faoliyat ko'lamining etarli bo'lmasligining (juda kuchsiz missiya natijasida) oldini olishi zarur;

- faoliyatni bank muassislari uchun maksimal daromad olinishiga yo'naltirishiga yo'l qo'ymaslik darkor, bu perspektiv bozor pozitsiyasiga yomonlashuvi xavfini keltirib chiqaradi;

- dasturiy xarakterdagi tegishli hujjatda bank missiyasi rasmiylashtirilishi kerak (aksincha holatda og'zaki tartibda kelishilgan missiyani amalga oshirish jarayonida bankning asosiy muassislari o'rtasida ma'lum nizolar kelib chiqishi mumkin).

Bank missiyasini tasniflash vva oshkor qilishga yondashuvlar:

- rasmiy va oshkor xarakteridagi yagona missiyaning mavjudligi (strategik boshqaruv nazariyasining talabi);

- ikki missiyaning mavjudligi, birinchisi asosan deklarativ, reklama xarakterida bo'lsa, ikkinchisi haqiqiy odatda, konfedentsial maqsadlarni aks ettiradi (bu agressiv raqobat muhitida faoliyat olib boruvchi bozorning real sub'ektlari uchun ancha xarakterlidir).

2 - bosqich. Bankning strategik maqsadlarini aniqlash.

Strategik maqsadlar - ilgari tasniflangan missiyani amalga oshirishga yo'naltirilgan, nizom faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha bankning keng ko'lamli masalalari.

Strategik maqsadlarni aniqlashda hisobga olinadigan omillar:

- bankning ichki resurslari (birinchi navbatda moliyaviy, informatsion va mehnat) - ustuvor omil sifatida;

- muassislar tomonidan qo'yilgan talablar (bank rentabelligining reja darajasi, ixtisoslashish yo'nalishi va x.k.);

- ichki va tashqi muhitning chegaralovchi va qo'llab - quvvatlovchi omillari (qonunchilik, raqobatchilar, mijozlar, personal, texnoolgiyalar va x.k.);

- bankning korporativ madaniyati.

Belgilangan maqsadlarga qo'yilgan metodologik talablar:

- reallik, ya'ni ularga amaliy jihatdan erishishning mumkinligi (birinchi navbatda bankda mavjud bo'lgan resurslar bilan aniqdanadi) - bosh talab sifatida;

- aniqlik, ya'ni bevosita bajaruvchilar tomonidan bir xilga tushunilishi va talqin qilinishi;

- o'lchovlilik, ya'ni ularni miqdoriy tasniflash mumkinligi;

- vaqt davomidagi yo'naltirilganlik, ya'ni qo'yilgan maqsadlarni vaqt nuqtai - nazaridan differentsiyalanishi - uzoq muddatli, o'rta muddatli va joriy va ularga erishishning aniq muddalarini belgilash;

- bir xillilik, ya'ni bank faoliyatining turli yo'nalishlari bo'yicha maqsadlar qarama - qarshiligining mumkin emasligi.

“Maqsadlar daraxti” - ierarxik ketma - ketlikda bir - biridan kelib chikuvchi bank strategik maqsadlari jamlanmasi bo'lib, quyidagi strukturaviy elementlardan iborat:

“Ildizlar” - nizom faoliyatini olib borishda ishlatiladigan resurslarning kelib tushishining quyidagi manbalari jamlanmasi:

- moliyaviy resurslar bilan ta'minlash manbalari (banklarimiz uchun ustuvor);

- informatsion resurslar bilan ta'minlash manbalari (xorij banklari uchun ustuvor);

- mehnat resurslari bilan ta'minlash manbalari (bankning mintakaviy joylashuviga ustuvor bog'liq);

- texnologik resurslar bilan ta'minlash manbalari;

- moddiy - texnik resurslar bilan ta'minlash manbalari.

Izoh:qo'yilgan strategik maqsadlar masshtabi resurs ta'minoti sifatiga bevosita bogliq. Shuning uchun bank rahbariyati bozordagi faoliyati davomida resurs bazasini yaxshilash uchun doimiy ravishda barcha imkoniyatlardan foydalanishi zarur.

“Daraxt tanasi” - bank missiyasi va undan kelib chiqadigan bozor faoliyati strategiyasi (strategik rejani ishlab chiqishning 6 - bosqichi).

“Daraxt tanasidan o'sib chiqqan asosiy shoxlar” - bank nizom faoliyati yo'nalishlari bo'yicha strategiyalar:

- moliyaviy strategiya;

- marketing strategiyasi;

- xodimlar strategiyasi;

- o'z xavfsizligi ta'minlash strategiyasi;

- risklarni boshqarish strategiyasi.

“Boshqa shoxlar” - yuqoridan ko'rsatilgan strategiyalar doirasidagi siyosatlar:

Marketing strategiyasi doirasida:

- assortiment siyosati (xizmatlar assortimentini boshqarish soxasida ustuvor yo'nalishlar);

- bozorning yangi segmentlarini egallash siyosati (bozorning yangi segmentiga kirib borish yoki chiqish usullari soxasidagi ustuvor yo'nalishlar);

- baho siyosati (narxni shakllantirga strategik yondashuvlar);

- reklama siyosati (reklama faoliyatini tashkil qilish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar).

- Moliyaviy strategiya doirasida.

- joriy likvidlikni ta'minlash siyosati (mablag'larni jalb qilish va joylashtirish muddatlarini muvofiqlashtirishga strategik yondashuvlar);

- foiz siyosati (jalb qilinadigan va joylashtiriladigan moliyaviy resurslar bo'yicha foiz stavkalari diapazonini boshqarishga strategik yondashuvlar);

- emission siyosat (mablag'larni jalb qilish uchun qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatning strategik ustuvor yo'nalishlari);

- depozit siyosati (jismoniy va yuridik shaxslar depozitlari bozorida faoliyatni tashkil qilishning strategik ustuvor yo'nalishlari);

- kredit siyosati (bank ssuda portfelini boshqarishda strategik ustuvor yo'nalishlar);

- fond siyosati (qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarishdagi strategik ustuvor yo'nalishlar);

- dividend siyosati (dividendlarni hisoblash va to'lashning umumiy tartibini aniqlashga strategik yondashuvlar).

Xodimlar strategiyasi doirasida:

- xodimlar sonini tartibga solish siyosati;

- xodimlarni rivojlantirish siyosati;

- xodimlar motivatsiyasi siyosati;

- ijtimoiy siyosat.

Xavfsizlikni ta'minlash strategiyasi doirasida:

- tijorat risklarini boshqarish siyosati;

- moliyaviy risklarni boshqarish siyosati;

- xodimlar riskini boshqarish siyosati;

- texnologik risklarni boshqarish siyosati;


- boshqaruv risklarini boshqarish siyosati.

“Barglar” - yuqorida ko'rsatilgan siyosatlar doirasidagi aniq strategik maqsadlar.

“Mevalar” - yuqorida tasniflangan maqsadlar ta’minlab beradigan bank faoliyatining moliyaviy va boshqa natijalari hamda rejalashtirilayotgan bozor pozitsiyasi.

Bankning bozor faoliyati strategiyasi.

Bu bosqich strategik rejalashtirish texnologiyasining eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Uning maqsadi - strategik modelni tanlashdir. Ushbu model asosida raqobatchilar, mijozlar va boshqa biznes xamkorlar bilan munosabatlar shakllantiriladi. Bozor faoliyatining ularga adekvat bo’lgan variantini to’g’ri tanlash kredit muassasasiga uzoq muddatli tijorat va moliyaviy muvaffaqiyat keltiradi. Xatoliklar o’z navbatida katta yo’qotishlarga olib keladi. Optimal variantni tanlashga qo’yilgan talablar shuningdek, ulardan istalgani bank faoliyatining barcha yo’nalishlari bo’yicha kompleks strategik tadbirlarni amalga oshirilishini taqozo qilishi bilan kuchayadi. Buni quyidagi sxemada ko’rish mumkin. (2-rasm)



2-rasm. Bankning bozor faoliyati strategiyasini tanlash bilan bog’liq strategik alternativalar.⁷

⁷ Банковское дело: Учебник под ред. Белоглазовой Г.Н., Кроливецкой. Л.П. - 5 -е изд., перераб. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2006. - 592 б.

Strategik rejani ishlab chiqish jarayonida kiritilishi mumkin bo'lgan korrektivalar (o'zgartirishlar).

Bunday o'zgartirishlar makro va mikro muhitning joriy omillariga bank strategiyasining moslashuvchanligini ta'minlashga yo'naltiriladi. Strategik boshqaruv samaradorligiga salbiy ta'sir qiluvchi xavflardan biri dogmatizm, ya'ni xo'jalik sub'ekti faoliyati sharoitlarining haqiqiy holatini inobatga olinmasligidir. Strategik rejani korrektirovkalash zarurati ikki omil ta'siri ostida yuzaga kelishi mumkin:

- strategik rejani ishlab chiqish jarayonida kredit muassasasi faoliyati sharoitining o'zgarishi;

Misol: bunday vaziyatni aniqlashtiradigan tashqi omil tariqasida harakatdagi qonunchilik normalarining o'zgarishi, ichki omil sifatida - yangi strategik hamkorning paydo bo'lishi va bankning bozor pozitsiyalarining yaxshilanishi bo'lishi mumkin.

- strategik rejani ishlab chiqilishida yo'l qo'yilgan kamchiliklarning operativ rejalashtirish jarayonida aniqlanishi.

Misol: bankning operativ moliyaviy rejasi bo'lgan byudjetni ishlab chiqishda defitsitning mavjudligi aniqlanadi, mutaxassislarning fikricha buning sababi moliyaviy strategiyada (ya'ni, strategik rejaning bir qismida) juda katta maqsadlarning nazarda tutilishidir.

Strategik rejani ishlab chiqishning yakuniy bosqichida, strategik reja muvaffaqiyatli bajarilishi hisobiga, olinishi mo'ljallanayotgan moliyaviy paramentlar (nazorat ko'rsatkichlari) hisob - kitob qilinadi. U derektiv emas, balki bashorat xarakteriga ega bo'ladi. Xorijiy banklar bunda zamonaviy informatsion texnologiyalar asosida matematik modellashtirish usullaridan foydalanadi.

Rejalashtirish natijalari rejalashtirilayotgan davr davomida barcha tegishli parametrlar dinamikasini aks ettirishi va bankning asosiy muassislari bilan kelishilgan bo'lishi shart.

II BOB. “ASAKA” DAVLAT-AKTSIYADORLIK TIJORAT BANKI AKTIV VA PASSIV OPERATSIYALARINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

2.1. “Asaka” Davlat-aktsiyadorlik tijorat bankining tashkil topishi tarixi hamda missiyasi

“Asaka” Davlat-aktsiyadorlik tijorat banki (“Asaka” bank) mamlakatimizning moliyaviy xizmatlar bozorida 15 yildan ortiq davrda faoliyat ko’rsatib kelmoqda. Bank 1995 yilda tashkil etilgan. Aktsiyadorlari – O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (66,6%), “O’zavtosanoat” Aktsiyadorlik Kompaniyasi (16,7%) va O’zbekiston Respublikasining tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi (16,7%).

Kapital va aktivlar hajmi bo’yicha respublika tijorat banklari o’rtasida 2-o’rinda turadi. Hududiy tarmoq O’zbekiston Respublikasi butun hududini qamrab olib 26 ta filial va 107 ta mini-bankdan iborat. Bozorda keng hajmda an’anaviy va zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etuvchi yirik universal moliyaviy-kredit instituti sifatida o’rin egallangan.

“Asaka” bank xizmatlaridan foydalanuvchi xo’jalik yurutuvchi sub’yektlarning soni – 28,8 mingdan ortiq. Ular qatorida mashinasozlik, aniq mashinasozlik va asbobsozlik, metallarga ishlov berish, konchilik, energetika, qurilish majmuasi, paxtani qayta ishlash sanoati, to’qimachilik sanoati, dori-darmon ishlab chiqarish, nashriyot, oziq-ovqat sanoati, qishloq xo’jaligi, transport va aloqa, savdo va umumiy ovqatlanish, xizmat ko’rsatish kabi va iqtisodiyotning boshqa sohalarida faoliyat ko’rsatayotgan korxonalar vakillari mavjud. Xizmatlardan foydalanayotgan jismoniy shaxslarning soni 778,3 mingdan ortiq.

Bankning chakana xizmatlaridan muntazam ravishda foydalanuvchilar soni 700 ming kishidan oshgan.

“Asaka” bank tashqi iqtisodiy hamkorlikning faol ishtirokchisi. Mamlakatimiz iqtisodining strategik sohalarini rivojlantirishga bevosita xorijiy

sarmoyalarni jalb etishga ko'maklashib kelmoqda. 336 ta etakchi xorijiy banklar bilan korrespondent munosabatlari o'rnatilgan.

Mashhur xorijiy «Euromoney», «Global Finance» va «The Banker» nashriyotlar tomonidan “O'zbekistonning eng yaxshi banki” unvoniga bir necha bor sazovor bo'lgan.

“Asaka” banki o'zining xalqaro maqomiga katta etibor qaratadi. Hususan, bank doimiy tarzda xalqaro reyting agentliklari tomonidan reyting baholarini oladi.

2013 yilning 1 oktyabr holatiga umumiy aktivlar hajmi 2 trln. 448,5 mlrd. so'mni tashkil etdi (01.10.2010 yilga nisbatan 50,2% o'sish), daromad keltiruvchi aktivlar hajmi 1 trln. 792,0 mlrd. so'm (68,3%) yoki barcha aktivlarning 73,2%, shu jumladan: kreditga berilgan mablag'lar – 1 trln. 171,3 mlrd. so'm.

Joriy yilning hisobot davrida bankning umumiy kapitali 2009 yilning xuddi shunday davriga nisbatan 25,1% ga oshdi va 379,6 mlrd. so'mni tashkil etdi bu esa Markaziy bankning kapital etarliligi bo'yicha me'yorlarini bajarish uchun etarli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 20 fevraldagi 3968-sonli “Tijorat banklarida aholi omonatlari kafolatlarini ta'minlash va shartlarni liberallashtirishga qaratilgan qo'shimcha choralar to'g'risida” Farmoni chiqqandan so'ng, “Asaka” banki tomonidan aholi mablag'larini omonatlarga jalb etish bo'yicha ma'lum ish olib borilmoqda. Aholi omonatlari davlat iqtisodiga sarmoyalar kiritishning muhim manbasidir, va aholining banklarga murojaatlari sonining ortib borishi bank tizimiga nisbatan ishonch o'sishiga guvohlik beradi.

Shuningdek, Prezident Farmoni bilan “Ko'rsatuvchiga” omonatlarni qabul qilish nazarda tutilgan. Mazkur Farmonni bajarish borasida 2008 yilning 01 aprel kunidan boshlab “Asaka” bank “Ko'rsatuvchiga” omonatlarni milliy va xorijiy valutada cheklanmagan hajmda va pul mablag'lari manbasini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilmagan holda qabul qilishni boshladi.

Hozirgi kunda “Asaka” bank bo’yicha jismoniy shaxslar uchun 48 turdagi omonatlar mavjud, ulardan 30 tasi milliy valutada va 18 turi xorijiy valutada. 2014 yilda jismoniy shaxslar uchun 19 turdagi omonatlar joriy etildi, ulardan 14 tasi milliy valutada va 5 turi xorijiy valutada

“Asaka” bank plastik kartasi bu:

- Do’kon, mehmonxonalar, yoqilg’i quyish shaxobchalarida, metrida mol va xizmatlar uchun, uyali aloqa va boshqa xizmatlar uchun qulay to’lash vositasi;

- Tez va oson avtokredit to’lash imkoniyati;

- O’rta oylik mablag’ qoldig’iga har oyda qo’shimcha daromad;

- Pul mablag’larini karta yo’qolganda yoki o’g’irlanganda saqlab qolish imkoniyati, chunki karta yo’qolsa ham, pullaringiz qoladi;

- Qog’oz pullarini soxtalash bilan bog’liq xavf mavjud emasligi;

- Plastik karta bo’yicha amaliyotlar ro’yxati asosida pul mablag’laringiz sarflanishi ustidan oson va qulay nazorat;

- Karta yo’qolishi yoki o’g’irlanishidan sug’urtalash

Hozirgi kunda “Asaka” bank O’zbekiston Respublikasi bo’yicha MasterCard kartalari bo’yicha amaliyotlarni amalga oshiruvchi o’zining ko’p vazifali amaliyot markazini yaratgan birinchi va yagona bankdir. “Asaka” bank xalqaro plastik kartalar bozorida 2002 yilning may oyidan faoliyat ko’rsatmoqda. Bankning O’zbekiston miqyosida yaratilgan ko’p vazifali amaliyot markazi va xalqaro to’lov uyushmasida to’la vakolatli a’zolik bank mijozlariga raqobatchilar narxidan arzonroq narxlarda bir qator xizmatlarni taqdim etish imkoniyatini yaratadi.

“Asaka” bank xalqaro kartalarni bepul taqdim etadi, faqatgina kartani chiqarish bilan bog’liq harajat undiriladi. Bank quyidagi turdagi xalqaro kartalarni taklif etadi:

Maestro – daromadidan qat’iy nazar har bir kishi elektron to’lovini amalga oshirish uchun ochishi mumkin bo’lgan karta. Shuningdek, ushbu karta bo’yicha “MasterCard”, “Cirrus” xalqaro bankomat tizimi va “ES” Evropa tarmog’i

bankomatlari tizimida naqd pul olish mumkin. “Maestro” xalqaro savdo terminallari va “EDC” Evropa tizimining terminallari o’rnatilgan savdo shaxobchalarida xarid to’lovini amalga oshirish uchun ishlatiladi.

MasterCard Standart. Butun dunyoda to’lov vositasi sifatida qabul qilinadi. Hisob raqamidagi qoldiq miqdorida bankomat, naqd pul berish nuqtalarida naqd pul olish mumkin, olingan mol va taqdim etilgan xizmatlar uchun to’lovni, mehmonxonalarfa joy bron qilish, masofadan to’lovni (masalan, o’qish uchun) amalga oshirish mumkin.

MasterCard Biznes. Tashkilot (kompaniya) mablag’larini belgilangan miqdorda sarflashga vakolat olgan xodimlari uchun chiqariladigan korporativ karta.

Plastik karta olish “Asaka” bankning istalgan filialiga pasportingizni taqdim etgan holda murojaat qilishingiz mumkin.

Yosh oilalarni moddiy va ruhiy jihatdan qo’llash, mehnat faoliyatlari endigina boshlanganda va mustaqil hayotga ilk qadamlar qo’yishayotganda zarur yordam ko’rsatish, barqaror daromad manbalarini shakllantirish va yosh oilalarning turmush va maishiy sharoitlarini yaxshilash maqsadida “Asaka” bank DATB quyidagi shartlarda uy-joy sotib olish uchun kredit ajratadi:

Uy-joy sotib olish uchun kredit (quyida Ipoteka krediti deb ataladi) O’zbekiston Respublikasi fuqarolariga ularning yashash joylaridagi “Asaka” bankning hududiy filiallari tomonidan beriladi.

“Asaka” bank DATB tomonidan o’z mablag’lari va jalb etilgan mablag’lar hisobidan beriladigan Ipoteka krediti miqdori sotib olinayotgan uy-joy narxi miqdori bilan cheklanadi, ammo:

Shaxsiy uy-joy sotib olish uchun qonunchilik bilan belgilangan eng kam ish haqining 3000 miqdoridan ko’p emas (istisno tariqasida Toshkent va Samarqand shaharlari uchun ushbu miqdor qonunchilik bilan belgilangan eng kam ish haqining 5000 miqdoridan ko’p emas deb belgilangan, bunda ko’rsatilgan istisno yosh oilalarga beriladigan kreditlarga taalluqli emas).

Ko'p xonadonli uyda xonadon sotib olish uchun - qonunchilik bilan belgilangan eng kam ish haqining 2500 miqdoridan ko'p emas (istisno tariqasida Toshkent va Samarqand shaharlari uchun ushbu miqdor qonunchilik bilan belgilangan eng kam ish haqining 4000 miqdoridan ko'p emas deb belgilangan, bunda ko'rsatilgan istisno yosh oilalarga beriladigan kreditlarga taalluqli emas).

«Asaka» DATB yangi ishlab chiqarishni qurish va mavjudini kengaytirish, zamonaviylashtirish, texnik qayta sotib olishga qaratilgan sarmoya loyihalarning loyihaviy moliyalashtirilishini amalga oshiradi.


2.2. “Asaka” Davlat-aktsiyadorlik tijorat bankining tashkiliy strukturasi va bo'limlar faoliyati

Bankning tashkiliy strukturasi bu-amalga oshirilayotgan jarayonlarni to'la hisobga olgan holda bank va xodimlar faoliyatini bajarish va tashkil etish tizimidir. Bank faoliyatining tahlili natijasini aniqroq belgilash va uni olib borish bankning strukturasi ga chambarchas bog'liqdir. Buning uchun esa avvalo tashkilotning, aniqrog'i bankning tashkiliy strukturasi ni to'g'ri va optimal tuzish talab etiladi. Bu masala ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zining birlamchi ko'rsatkichlaridan ekanligini namoyon qildi. Bank marketingi esa shu ma'lum bir regionda va regiondan tashqarida bank xizmatlariga bo'lgan talab va taklifni o'rganish, bank xizmatlariga bo'lgan talabni boshqarish va qondirish, turli banklar tomonidan amalga oshirilayotgan bir turdagi operatsiyalar harajatini taqqoslash, reklamani amalga oshirish tizimidir.

Bank marketingi birinchi navbatda bankning potentsial mijozlarini qidirib topishini bildiradi. Bank mijozni hamda o'zining iqtisodiy potentsialini birgalikda qo'shib o'rganadi. Bank xizmatini yangi turlariga bo'lgan talabni urganish hozirgi zamon banklarining eng dolzarb masalasidir. Oxirgi yillarda bank muamolasiga kiritilgan. Tijorat banklarinig maslaxat xizmati, qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiyalari ham bundan mustasno emasdir.

Bankning o'z marketing xizmatini olib borishi bir necha usullariga ega. Bularning eng birinchisi hamda oddiysi mijozlar bilan olib boriladigan bevosita olib boradigan muloqatidir. Mijozni ham bank ishchisini moddiy tomonidan rag'batlantirilishi bu vazifani xal qilishning asosiy mezonlaridan biridir.

“Asaka” Davlat-aktsiyadorlik tijorat bankining tashkiliy strukturasi ham bank sohasida faoliyat olib borishda optimal tuzilmalardan biri hisblanadi desak hato bo'lmaydi. “Asaka” Davlat-aktsiyadorlik tijorat bankining tashkiliy strukturasi chizqili-funksional bo'lib, quyidagi chizmada ko'rishimiz mumkin.



3-rasm. “Asaka” DAT bankining Xorazm viloyati filiali boshqaruvi tuzilmasi⁸

Mamlakatimizda olib borilayotgan moliya-bank tizimidagi islohotlar natijasida bugun yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan bank muassasalari katta-kichik sanoat korxonalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari, dehqon hamda fermer xo'jaliklarining ishonchli hamkoriga aylandi. Negaki, yalpi ichki mahsulot hajmi, aholi real ish haqi va daromadlarining o'sishida,

⁸ “Asaka” Davlat-aktsiyadorlik tijorat bankining Xorazm viloyati filialining ma'lumotlari.

yurtimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon bozorida o'z xaridoriga ega bo'lishida, ijtimoiy ob'ektlar hamda turar-joy binolari barpo etishdek keng ko'lamli bunyodkorlik ishlarida qo'lga kiritilayotgan ulkan yutuqlarda aynan bank muassasalarining moliyaviy ko'magi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'tgan yil yakunlarini sarhisob qilganda, avvalambor shuni ta'kidlashimiz kerakki, global jahon iqtisodiyotida hali-beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan 2014 yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholining turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozoridagi o'z pozitsiyasini mustahkamladi.

Boshqaruvning tashkiliy strategiyasi keng ma'noni anglatib, uboshqaruv tizimining tizimlari va bo'limlari orasidagi o'zaro bog'liqlikni va ular yig'indisining anglatadi. Boshqaruv strukturasi tashkilotning faoliyat turiga qarab, murakkab ko'p bosqichli, pog'ona, ko'p bo'limli va sodda bo'lishi mumkin. Har ikki holda ham boshqarish funktsiyalari bo'lgan rejalashtirish, tashkil etish, nazorat va rag'batlashtirish funktsiyalari bajariladi. Bir butun boshqarish strukturasi ierarxik tartibda tuziladi.

Boshqarish strategiyasining tub mohiyati ko'p iqtisodchilar tomonidan talqin qilingan. Bir qator avtorlar tomonidan – “boshqarish strategiyasi – bu bir butun tashkiliy tizim bo'lib, unda ma'lum belgilarga ko'ra elementlar va struktura osti tizim shakllanadi va ular o'zaro bog'liq jarayonlar bilan bir biri bilan uzviydir”. Yana boshqa ta'rif “Boshqarishning tashkiliy strukturasi bu bo'limlar va lavozimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, vakolatlarning, majburiyat va vazifalarning ular orasida bo'linishi, hamda boshqarish jarayonida yuzaga keladigan. Funktsional texnologik aloqalarning tartibidir”.

Boshqarish funktsiyalarining ixtisoslashuvi, boshqaruv jarayonini bir butunligini maydalab boshqarilayotgan bo'limgagina javobgarlikni vujudga keltiradi. Ba'zi bo'limlar haddan tashqari bir funktsiyani bajarib, konservatizmga, ya'ni tashabbussiz ishlashga o'rganib qoladilar. Funktsional va kasbiy turli tumanlik funktsional zvenolar o'rtasida nizolarning kelib chiqishini vujudga keltiradi.

2.3. “Asaka” Davlat-aktsiyadorlik tijorat bankining aktiv va passiv operatsiyalari tahlili

Dunyoning asosan yirik banklarida ochilgan korrespondent hisob raqamlari orqali turli amaliyotlarni o'tkazish imkoniyatini yaratuvchi keng korrespondent tarmog'iga egalik qilib, “Asaka” DATB yirik banklar o'rtasida yetakchi o'rinni egallab turibdi.

Bankning ustav kapitali miqdori 315 600 000 000 (uch yuz o'n besh milliard olti yuz million) so'mni tashkil qiladi va har birining nominal qiymati 52 600 (ellik ikki ming olti yuz) so'm bo'lgan 6 000 000 (olti million) dona egasining nomi yozilgan oddiy aktsiyalarga taqsimlangan.

Ustav kapitalini oshirish maqsadida Bank chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aktsiyalari 1 714 000 (bir million etti yuz o'n to'rt ming) dona egasining nomi yozilgan oddiy aktsiyalardan iborat.

Bank aktsiyalarining nominal qiymati 52 600 (ellik ikki ming olti yuz) so'm.

Hozirgi kunda “Asaka” bankning korrespondent banklari (hisob raqamini ochish bilan va rasmiy tarzda) 310tani tashkil etishadi. 33 tasi bilan hisob raqamlari ochilgan: 19 ta nostro va 14 ta vostro hisob raqamlari.

Hozirgi kunda korrespondent banklarning soni “Asaka” banki tomonidan mijoz buyurtmasiga asosan bajarilayotgan barcha banklararo amaliyotlarni qamrab olishga imkoniyat beryapti. Zaruriyat tug'ilganda “Asaka” bank yangi banklar bilan korrespondent munosabatlarini o'rnatishga qaratilgan ishlarni tezkor bajarishga tayyor.

Yosh oilalarni moddiy va ruhiy jihatdan qo'llash, mehnat faoliyatlari endigina boshlanganda va mustaqil hayotga ilk qadamlar qo'yishayotganda zarur yordam ko'rsatish, barqaror daromad manbalarini shakllantirish va yosh oilalarning turmush va maishiy sharoitlarini yaxshilash maqsadida “Asaka” bank DATB quyidagi shartlarda uy-joy sotib olish uchun kredit ajratadi.

Uy-joy sotib olish uchun kredit (quyida Ipoteka krediti deb ataladi) O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga ularning yashash joylaridagi “Asaka” bankning (quyida bank deb ataladi) hududiy filiallari tomonidan beriladi.

Kredit olish huquqidan ehtimolli qarz-oluvchi (quyida qarz-oluvchi deb ataladi) quyidagi talablarga javob bersa foydalanishi mumkin:

a) O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi kerak;

b) turar joyi bo'yicha doimiy ro'yxatdan o'tgan;

v) yosh – 18 yoshdan 53 yoshgacha (ayollar), 59 yoshgacha (erkaklar).

Bunda kredit taqdim etishning umumiy muddati qarz-oluvchi pensiya yoshiga etguncha (ya'ni 53 yoshda ayollar, 60 yoshda erkaklar) qaytarishi lozimligi shartidan kelib chiqib belgilanadi;

g) sotib olinayotgan uy-joy narxining 70 va undan ortiq foizi miqdorida mablag' kiritilsa, foiz stavkasi yiliga 10% miqdorida belgilanadi;

d) bir joyda ish staji kamida 6 oy va umumiy ish staji kamida 1 yil bo'lishi shart;

e) bank va boshqa moliya institutlari oldida qarzdorligi bo'lmasligi shart;

j) narkologik yoki ruhiy-asab dispanserida hisobda turmagan.

“Asaka” DATB tomonidan o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'lar hisobidan beriladigan Ipoteka krediti miqdori sotib olinayotgan uy-joy narxi miqdori bilan cheklanadi, ammo:

Shaxsiy uy-joy sotib olish uchun qonunchilik bilan belgilangan eng kam ish haqining 3000 miqdoridan ko'p emas (istisno tariqasida Toshkent va Samarqand shaharlari uchun ushbu miqdor qonunchilik bilan belgilangan eng kam ish haqining 5000 miqdoridan ko'p emas deb belgilangan, bunda ko'rsatilgan istisno yosh oilalarga beriladigan kreditlarga taalluqli emas).

Ko'p xonadonli uyda xonadon sotib olish uchun - qonunchilik bilan belgilangan eng kam ish haqining 2500 miqdoridan ko'p emas (istisno tariqasida Toshkent va Samarqand shaharlari uchun ushbu miqdor qonunchilik bilan belgilangan eng kam ish haqining 4000 miqdoridan ko'p emas deb belgilangan, bunda ko'rsatilgan istisno yosh oilalarga beriladigan kreditlarga taalluqli emas).

Ipoteka kreditidan foydalanish uchun hisoblanadigan foizlar stavkasi.

Ipoteka kreditidan foydalanish uchun hisoblanadigan foizlar stavkasi yiliga 15%dan 18%gacha belgilanadi. Ipoteka kreditidan foydalanish uchun

hisoblanadigan foizlar stavkasi qarz oluvchi depozit hisob raqamiga kiritgan o'z mablag'lari miqdoriga bog'liq holda belgilanadi:

a) Berilayotgan kredit miqdorining 30 % gacha pul mablag'lari kiritilganda - foizlar stavkasi yiliga 18 % miqdorida belgilanadi.

b) Berilayotgan kredit miqdorining 30 % dan 40 % gacha pul mablag'lari kiritilganda - foizlar stavkasi yiliga 17 % miqdorida belgilanadi.

v) Berilayotgan kredit miqdorining 40 % dan 50 % gacha pul mablag'lari kiritilganda - foizlar stavkasi yiliga 16 % miqdorida belgilanadi.

g) Berilayotgan kredit miqdorining 50 % va undan ortiq miqdorda pul mablag'lari kiritilganda - foizlar stavkasi yiliga 15 % miqdorida belgilanadi.

Yosh oilalarga berilayotgan kredit miqdorining 25 % dan kam bo'lmagan miqdorda depozit hisob raqamiga pul mablag'lari kiritilganda - ipoteka kreditidan foydalanish uchun foizlar stavkasi yiliga 14 % miqdorida belgilanadi. Bunda qonunchilikka muvofiq yosh oila toifasiga birinchi marotaba oila qurgan va yosh er-xotinning har birining yoshi 30 yoshdan oshmaganlar kiradi.

Yosh oilaga beriladigan ipoteka krediti bo'yicha uch yillik asosiy qarzni to'lash imtiyozli davr beriladi, imtiyozli davr tugagan sananing keyingi kunidan kreditni qoplash bo'yicha to'lov boshlanadi.

“Asaka” DATB tomonidan pulli-shartnomaviy asosda oliy o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limlariga o'qishga kirgan talaba – O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, ularning ota-onalariga `yoki vasiylariga (quyida matnda “qarz oluvchi” deb ataladi) ta'lim kreditlarini taqdim etadi.

Bakalarvriatga o'qishga kirgan shaxslarga ta'lim krediti 10 yil muddatga, magistraturaga o'qishga kirgan shaxslarga ta'lim krediti 5 yil muddatga beriladi, bunda ushbu muddat ichiga oliy o'quv yurtida o'qish davri kiritiladi.

Muddatli harbiy xizmatini o'tash davri ushbu muddat ichiga kiritilmaydi.

Mazkur Yo'riqnomaga muvofiq “Asaka” Davlat Aksiadorlik Tijorat banki tomonidan taqdim etilgan ta'lim kreditlari bo'yicha quyidagi miqdorlarda foiz stavkalari belgilangan:

Yetim, “Mehribonlik” bolalar uyi tarbiyalanuvchilariga, bolalikdan I va II guruh nogironlariga foiz stavkasi nolga teng (foizsiz kredit).

Talabalarning qolgan toifalariga – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining amaldagi qayta moliyalashtirish stavkasidan oshmagan, o‘zgaruvchan foiz stavkasi bo‘yicha.

“Asaka” DATB tomonidan ta’lim kreditlari bo‘yicha hisoblanadigan foiz stavkalari va foiz to‘lovlari miqdori O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining amaldagi qayta moliyalashtirish stavkasi o‘zgarishiga bog‘liq holda o‘zgarishi mumkin va kredit shartnomasida ushbu holat ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Kam ta’minlangan oila a’zosi – talaba uchun kreditga hisoblangan foizlarning 50% Bandlikka ko‘maklashish Davlat Jamg‘armasi mablag‘lari hisobiga (quyida matnda “jamg‘arma” deb ataladi) tuman Bandlikka ko‘maklashish markazlari tomonidan amalga oshiriladi. (08.05.2007 yildagi O‘zR VMning 95-sonli Qarorining xatboshi).

Iste’mol ehtiyojlariga kredit O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga ularning yashash joylaridagi “Asaka” bankning hududiy filiallari tomonidan quyidagi shartlarda beriladi:

- Muddati – uzaytirish huquqisiz 3 yilgacha;
- Miqdori – 10 mln. so‘mgacha;
- Kreditni to‘lash tartibi – har oyda bir miqdorda pul mablag‘larini kiritish yo‘li bilan;
- Foiz stavkasi – yiliga 14%, kredit bo‘yicha foizlar har oyda to‘lanadi;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining “Tijorat banklari tomonidan yosh oilalarga imtiyozli asosda kredit berish to‘g‘risida”gi Nizomiga (18.07.2007 yil, 1697-sonli) muvofiq, yosh oila toifasiga kiruvchi qarz oluvchilarga quyidagi imtiyozlar belgilangan:

- Kredit olingandan so‘ng 6 oylik imtiyozli davr. Imtiyozli davr tugagandan so‘ng keyingi oydan boshlab asosiy qarz bo‘yicha har oyda bir xil miqdorda to‘lov amalga oshiriladi;

- Foiz stavkasi – yiliga 12%, kredit bo'yicha foizlar har oyda to'lanadi;
- Imtiyozli davrda foizlar hisoblanmaydi va undirilmaydi.

1-jadval.

"Asaka" bank faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida 2015 yil 1yanvar holatiga ma'lumot⁹

№	Ko'rsatkichlar nomi	mlrd.so'm
1	umumiy kapital	801,7
1.1	shu jumladan: ustav kapitali	504,5
2	jami aktivlar	5 382,9
3	kassadagi mablag'lar	73,5
4	majburiy zahira xisobvarag'idagi mablag'lar	358,3
5	kredit qo'yilmalari	3 467,4
6	horijiy valyutada berilgan kreditlar	963,1
7	ipoteka kreditlari	203,0
8	iste'mol kreditlari	22,1
9	mikrokreditlar	67,4
10	qimmatbaho qog'ozlar va investitsiyalar portfeli	201,8
11	jalb qilingan depozitlar hajmi	3 445,7
12	aholi omonatlari	490,8
13	bank tomonidan chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlar	249,3
14	bank foydasi	78,0
15	mijozlar bazasi (dona)	1 452 100
15.1	shundan: jismoniy shaxslar (omonatchilar)	1 420 534
16	filiallar soni	26
17	minibanklar soni	103

Bank kapitalining hajmi 2014 yil 1 yanvarga nisbatan 16,02% ga o'sgan.

Bank daromadlarining hajmi ko'payib bormoqda va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 123,9% oshgan holda, olingan sof foyda miqdori ham o'z navbatida 119,4 % ga oshgan.

2014 yil davomida bankning jami depozit bazasi (talab qilinguncha, jamg'arma, muddatli, depozit va jamg'arma depozit sertifikatlar va obligatsiyalar) miqdori ortib bordi. Aholi omonatlari qoldiqlari o'tgan yilga nisbatan 123% ko'paydi, shundan muddatli omonatlar o'tgan yilga nisbatan 133%ga ortdi.

⁹ www.asakabank.uz

2-jadval.

"Asaka" bank faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida 2015 yil 1aprel holatiga ma'lumot¹⁰

№	Ko'rsatkichlar nomi	mlrd.so'm
1	umumiy kapital	837,7
1.1	shu jumladan: ustav kapitali	508,5
2	jami aktivlar	5 362,2
3	kassadagi mablag'lar	82,5
4	majburiy zahira xisobvarag'idagi mablag'lar	360,1
5	kredit qo'yilmalari	3 550,3
6	horijiy valyutada berilgan kreditlar	1 160,6
7	ipoteka kreditlari	214,2
8	iste'mol kreditlari	23,9
9	mikrokreditlar	62,3
10	qimmatbaho qog'ozlar va investitsiyalar portfeli	181,9
11	jalb qilingan depozitlar hajmi	3 342,0
12	aholi omonatlari	500,9
13	bank tomonidan chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlar	259,3
14	bank foydasi	24,4
15	mijozlar bazasi (dona)	1 479 161
15.1	shundan: jismoniy shaxslar (omonatchilar)	1 448 414
16	filiallar soni	26
17	minibanklar soni	95

“Asaka” bank tomonidan 2014 yil davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko’rsatkichlariga erishishning ustuvor yo’nalishlari to’g’risida”gi 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-sonli Qarori talablari ijrosini ta’minlash yuzasidan muayyan ishlar amalga oshirildi. 2015 yil 1 yanvar holatiga bankning jami aktivlari o’tgan yilning shu davriga nisbatan 15,99% ga o’sgan. Daromad keltiruvchi aktivlar umumiy aktivlarning 72,59% ni tashkil qilgan.

¹⁰ www.asakabank.uz

III BOB. TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA AKTIV VA PASSIVLARNI SAMARALI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida «Asaka» DAT bankining ishtiroki

Iqtisodiyotimizga xorijiy va mahalliy sarmoyalarni jalb qilish, bugungi kunda, shubhasiz yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish borasida o'ziga xos mablag' manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli, mamlakatimiz hukumati tomonidan ushbu masalaga keng miqyosda e'tibor qaratilib, bu borada bir qator qaror va farmonlarning hayotga tadbqiq qilinayotganligi, xorijiy va mahalliy sarmoyalarni jalb qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yurtimizga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda banklarning kapitallashuv darajasi muhim ahamiyatga ega. Bu esa tijorat banklarining korxonalarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashdagi investitsiya jarayonlarida keng ishtirok etishi, shu asosda raqobatbardosh, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va aholi bandligini oshirishni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda qo'l keladi.

Shuningdek, tijorat banki kapitalining doimiy o'sishi orqali xorijiy banklarning ishonchini qozonishga erishiladi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizga yanada qo'proq xorijiy banklarning mablag'larini jalb qilishga zamin yaratadi.

“Asaka” DATB mamlakatimizning yetakchi banklaridan biri sifatida yirik investitsiya loyihalarini moliyalash imkoniyatiga ega. 2014 yilda bank faoliyatida investitsion loyihalarni tanlash, tahlil qilish, ularni milliy va xorijiy valyutada kreditlash ishlari yanada rivojlandi. Bunda asosiy e'tibor korxona va tashkilotlarning ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va iqtisodiyotning boshqa real sektorlari yo'nalishidagi zamonaviy texnologiyalarni respublikamizga kiritish hamda yangi ishchi o'rinlarini yaratishga yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirishga qaratilmoqda.

Investitsiya dasturi doirasida iqtisodiyotning real sektori korxonalarini

qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonida banklarning moliyaviy ko'magi katta bo'lmoqda. Bank ham bu borada yetarlicha sarmoya yo'naltirib, ishlab chiqarish jarayonining kengayishi, korxonalar faoliyatining yuksalishiga qo'shayotgan hissassi yil sayin ortmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 18 noyabrdagi "Davlat investitsiya dasturi to'g'risida"gi PQ-2069-sonli qaroriga muvofiq bank zimmasiga Jahon banki Xalqaro Rivojlanish Assotsiatsiyasining "Sanoat korxonalarining energiya samaradorligini oshirish" bo'yicha 5,0 mln. AQSH dollari miqdorida va XSRIK (IKRCHS) 13,0 mln AQSH dollari miqdorida kredit liniyalarining jalb etilishi rejalashtirilgan. Joriy yilda "Asaka" bank tomonidan Jahon banki Xalqaro Rivojlanish Assotsiatsiyasining 7,2 mln. AQSH dollari miqdoridagi va XSRIKning 29,0 mln. AQSH dollari miqdorida mablag'lari jalb qilingan. Jahon banki Xalqaro Rivojlanish Assotsiatsiyasining 7,21 mln. AQSH dollari miqdoridagi mablag'lari o'zlashtirildi.

Lizing amaliyotlari bo'yicha. 2014 yilda 152 ta xo'jalik sub'ektlariga ko'rsatilgan lizing xizmatlari natijasida 625 tadan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash uchun mablag'lar ajratildi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 128,3 foizga ko'paydi.

Ishlab chiqarishni kengaytirish va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan mikrokreditlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 132,9 foizni tashkil etdi. Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga ajratilgan kredit mablag'lari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 134,1 foizni tashkil etdi.

O'zR Prezidentining PQ-308-sonli va PQ-842-sonli qarorlarga asosan qoramol sotib olishga ajratilgan mikrokreditlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 130,1 foizni tashkil etdi;

O'zR Prezidentining PQ-1047-sonli qaroriga asosan oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ajratilgan kreditlar o'tgan yilning shu davriga nisbatan 128,8 foizni tashkil etdi;

O'zR Prezidentining PQ-1050-sonli qaroriga asosan nooziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ajratilgan kreditlar o'tgan yilning shu davriga nisbatan 142,6 foizni tashkil etdi;

Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatkich 134,0 foizni tashkil etdi, shuningdek, Ta'lim muassasalari bitiruvchilariga kreditlar ajratildi.

Aholi bandligini ta'minlash maqsadida 2014 yil davomida "Asaka" bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar va moliyalashtirilgan loyihalar hisobiga 9 023 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Bank depozitlari bo'yicha.

2014 yil davomida bankning jami depozit bazasi (talab qilinguncha, jamg'arma, muddatli, depozit va jamg'arma depozit sertifikatlar va obligatsiyalar) miqdori ortib bordi. Aholi omonatlari qoldiqlari o'tgan yilga nisbatan 123% ko'paydi, shundan muddatli omonatlar o'tgan yilga nisbatan 133%ga ortdi.

Bank bo'yicha jami 93 ta omonat turi mavjud bo'lib, shundan 63 tasi milliy valyutadagi va 30 tasi xorijiy valyutadagi omonatlar.

2014 yil davomida bank filiallari kassalariga kirim qilingan naqd pul mablag'lari o'tgan yil bilan taqqoslaganda 111%ga ortgan.

Savdo va pullik xizmat orqali nakd puldagi tushum o'tgan yilga nisbatan 104% ga ortgan.

Plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan savdo va pullik xizmatlardan tushgan tushum 134% ga ortgan.

Boshqa tushumlar (kommunal xizmatlar, soliqlar, omonat, o'qish pullari) o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113%ga ortgan.

Plastik kartochkalar biznesini rivojlantirish bo'yicha.

Bank tomonidan 1mln. 323ming dona plastik kartochkalar muomalaga chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 151 ming donaga ko'paygan.

2015 yilning 1 yanvar holatiga bank tomonidan 9951 ta terminal o'rnatilgan, shundan savdo terminallari 9277 donani tashkil qiladi.

3-jadval.

2015 yil 1 yanvar holatiga "Asaka" bank aksiyadorlari ro'yxati¹¹

№	Aksiyadorlar nomi	Aksiyalar miqdori (dona)	Aksiyalar paketining nominal qiymati	Ulushi (%)da
1	O'z.R. Moliya vazirligi	251 221 140	279 378 005 371	55,37
2	"Uzavtosanoat" AK	60 063 900	66 795 861 912	13,24
3	O'z.R Tiklanish va taraqqiyot fondi	60 000 000	66 724 800 000	13,22
4	«UzGazOil» MCHJ	20 869 680	23 208 753 734	4,60
5	"Olmaliq TMK" AJ	28 291 923	31 462 881 730	6,24
6	"O'zbekiston temir yo'llari" DATYK	10 252 577	11 401 685 830	2,26
7	"O'zbektelekom" AK	2 033 635	2 261 564 811	0,45
8	"Uzagrosugurta" DASK	2 064 000	2 295 333 120	0,45
9	"Uzbekinvest" NKEIS	518 400	576 502 272	0,11
10	"Xalq Sugurta" MCHJ SK	522 000	580 505 760	0,12
11	Buxoro NQIZ UK	4 464 286	4 964 643 175	0,98
12	Farg'ona NQIZ USHK	4 464 286	4 964 643 175	0,98
13	"Uzmetkombinat" AJ	4 464 286	4 964 643 175	0,98
14	Navoiy TMK AJ	4 464 286	4 964 643 175	0,98
JAMI:		453 694 399	504 544 467 239	100

Umuman Bankda kredit berish jarayoni qarz oluvchilar sonini ancha ko'paytirishga, mijozlarni moliyaviy ahvolini har tomonlama va chuqur tahlil qilish, ishonchli mijozlarni tanlash asosida, kredit sohasida uchraydigan tavakallarni kamaytirish, kreditdan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish, kredit olishga qaratilgan takliflarni shu yo'nalishda taqsimlash va qabul qilish, kreditning qaytarilishini ta'minlaydigan qo'shimcha shakllardan foydalanish tomonga yo'naltirilgan.

¹¹ www.asakabank.uz

3.2. Tijorat banklarida aktivlar va passivlarni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish

Foydalilik ko'rsatkichlarining tasnifi: Ko'rsatkichlarning har biri bank foydaliligining u yoki bu jihatini tavsiflaydi. Masalan, ROA - birinchi navbatda bank rahbariyati faoliyatining samaradorligi ko'rsatkichidir. U bank muassasasi aktivlaridan sof foydani olish vazifasi qanchalik darajada bank rahbarlari tomonidan uddalanayotganlini bildiradi. Shu bilan bir qatorda, ROE - bank aksionerlari uchun daromadlilik o'lchovidir. U aksionerlar tomonidan investitsiya qilingan mablag'lar bo'yicha olinishi mumkin bo'lgan sof foydani (ya'ni, ma'lum daromad olish uchun o'z mablag'larini joylashtirish yuzasidan riskning) taxminiy miqdorini ko'rsatadi.

Operatsion daromadning sof marjasi, sof foiz marjasi va nofoiz marja samaradorlik va daromadlilik ko'rsatkichlari bo'lib, bank rahbariyati va xodimlarining daromadlarning (birinchi navbatda bank kreditlari va investitsiyalari bo'yicha foizlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun komission xaq) xarajatlarga (asosan depozitlar va pul bozoridan qarzlar bo'yicha foiz to'lovlari) nisbatan tezroq o'sishini ta'minlash yuzasidan muvaffaqiyatli (yoki muvaffaqiyatsiz) faoliyatini baholashga xizmat qiladi. *Sof foizli marja* foizlar bo'yicha olingan daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farq(spred)ni aniqlaydi va bank xodimlari tomonidan bankning daromadli aktivlarini optimal ishlata olishi va jalb qilinayotgan mablag'larning arzon manbalarini topa olish ishlari qay darajada ekanligini ko'rsatadi.

Nofoiz marja nofoiz ko'rinishidagi daromadlar (banklar tomonidan depozitlarga xizmat ko'rsatishdan va boshqa xizmatlardan olingan komission xaq) va nofoiz xarajatlar (jumladan ish xaqi, bank uskunalariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, kreditlar bo'yicha zararlarni qoplash) o'rtasidagi farqni aniqlaydi. Ko'pgina banklarda, keyingi paytlarda turli xildagi xizmatlarni ko'rsatishdan olinadigan komission mukofotning (masalan, xalqaro pul o'tkazmalaridan) oshib borishi hisobiga nofoizli marja ijobiydir, chunki foizsiz xarajatlar hajmi tegishli daromadlar hajmiga nisbatan kamroq.

Maxsus operatsiyalarni o'tkazishga qadar sof foyda ko'rsatkichi, odatiy daromad manbalari, ya'ni kredit va investitsiyalardan olingan daromadlar hamda boshqa xizmatlar uchun komission xaqning bankning jami aktivlariga nisbatini anglatadi. Noan'anaviy yoki favqulodda moddalar (bank mulki va uskunalarini sotish, qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar yoki zararlar) odatda analitiklar tomonidan bank daromadlilik ko'rsatkichlaridan chegiriladi. Nihoyat, bir aktsiyaga to'g'ri keluvchi sof foyda ko'rsatkichi bankning asosiy egalari bo'lgan aktsionerlar foydasiga to'lovlarni amalga oshirilishi holatini ko'rsatadi.

Spred yordamida bank omonatchilar va qarzdorlar o'rtasidagi vositachilik rolini qanchalik darajada muvaffaqiyatli barayotganligi xam da bank xizmati bozoridagi raqobat darajasi aniqlanadi. Xizmatlar bozoridagi raqobatning kuchayishi odatda aktivlar bo'yicha o'rtacha daromadlar hamda passivlar bo'yicha urtacha xarajatlar urtasidagi farkni kamaytiradi. Bu esa bank raxbariyatini foyda spreadini qoplash uchun foyda olishning yangi yo'llarini (masalan yangi turdagi xizmatlarni taklif qilish shaklida) axtarishga majbur qiladi.

Shuningdek, bankning daromadlilik ko'rsatkichlaridan yana biri jami operatsion foydaning jami aktivlarga nisbati sifatida aniqdangan operatsion foyda marjasi hisoblanadi. Daromadlilikning ushbu ko'rsatkichi ikki qismga bo'linishi mumkin - aktivlar bo'yicha o'rtacha foizli daromad va aktivlar bo'yicha o'rtacha foizsiz daromadlar. Ohirgi element turli xizmatlar (masalan, xalqaro pul o'tkazmalari) ko'rsatishdan olingan komission mukofot evaziga tashkil topadi. Kreditlar va boshqa daromadli aktivlar bozoridagi raqobatning keskinlashuvi va ko'pgina kreditlarning «umidsiz» sifatida baholanishi oqibatida, juda ko'p banklar komission mukofot shaklidagi foizsiz daromadlarni oshirishga katta e'tibor bilan qarasha boshlashdi. Bunday mukofotlar jami foyda miqdorining oshishiga olib keladi, bu esa uz navbatida aktsionerlarga to'lovlarni ko'paytiradi. Bundan tashqari bank rahbarlari daromad keltirmaydigan aktivlarga (masalan, kassadagi naqd pul, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar)

yo'naltirilgan resurslar hajmini kamaytirishga xarakat qilishmoqda. Daromad keltirmaydigan aktivlarning nisbiy muhimlik darajasini (kreditlar va qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar ko'rinishidagi to'g'ridan - to'g'ri daromad keltiruvchi aktivlarga taqqoslangan holda) aniqlashga yordam beruvchi ko'rsatkichlardan biri - daromad bazasi ko'rsatkichi hisoblanadi va quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{Aktivlarning daromad bazasi} = \text{Daromad keltiruvchi aktivlar} / \text{Jami aktivlar} \\ = (\text{Kreditlar} + \text{Lizing} + \text{Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar}) / \text{Jami aktivlar} = \\ (\text{Jami aktivlar} - \text{Daromad keltirmaydigan aktivlar}) / \text{Jami aktivlar}.$$

Daromad bazasi kamayib borayotgan bank rahbariyati va xodimlari mavjud daromad bazasini saqlab qolish uchun faol ish olib borishlari zarur buladi.

Bank qanchalik darajada samarali faoliyat ko'rsatishini tahlil qilishda daromadlilikning ba'zi ko'rsatkichlarini qismlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Masalan, xozirgi paytda keng ishlatilayotgan ROE va ROA ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligini ko'rish qiyin emas. Ikkalasida ham soliqdar to'langandan so'nggi foyda ko'rsatkichi ishlatiladi.

Ushbu aloqadorlik aktsiyadorlarga yo'naltiriladigan bank foydasining bank resurslari qanday manbalar hisobiga shakllantirilishiga (qarz majburiyatlari hisobigami yoki bank egalari mablag'i hisobigami) yuqori darajada sezgirligidan dalolat beradi.

Bank aktivlaridan foydalanish koeffitsienti - bank aktivlari portfelidan foydalanish siyosatining samaradorligini aniqlaydi.

Kapital multiplikatori - bank resurslarini shakllantirishda manbalarni tanlash (qarz majburiyatlari yoki aktsionerlik kapitali) jihatidan moliyalashtirish siyosatining olib borilishi yo'nalishini ko'rsatadi.

Garchi ko'rsatilgan ko'rsatkichlardan biron - birining kamayishi kuzatilsa, bank rahbariyati bundan o'zgarishlarning sabablarini zudlik bilan aniqlashlari hamda tegishli chora - tadbirlar ko'rishlari shart.

Keltirilgan 3 moliyaviy ko'rsatkichdan eng katta ahamiyatga ega bo'lgani kapital multiplikatoridir. Multiplikator bank moliyaviy siyosati yo'nalishining ko'rsatkichi bo'lib, aksionerlik kapitalining 1 so'mi necha so'mlik aktivlarni ta'minlaganini ko'rsatadi hamda mos ravishda bank resurslarining qancha qismi qarz majburiyatlari ko'rinishida joylashtirilishi mumkinligini aniqlaydi. Aksionerlik kapitali bank aktivlari bo'yicha zararlarni qoplashga yo'naltirilishini hisobga olsak, multiplikator darajasining ko'tarilishi bankning bankrotlikka duch kelishi ehtimolini oshirishi muki. Ammo ikkinchi tomondan multiplikator darajasining ko'payishi aktsiyadorlarga to'lovlar miqdorining ko'payishiga ham olib keladi.

Foyda marjasi yoki sof foydaning jami daromadlarga nisbati ko'rsatkichi ham bank rahbariyati tomonidan nazorat va boshqaruv ob'ekti hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich banklar harajatlar ustidan nazoratni kuchaytirish va daromadlilik darajasini maksimallashtirish bilan aksionerlarga to'lovlarni ko'paytirish mumkinligini eslatib turadi. Bank o'xshash tarzda aktivlarning o'rtacha daromadlilik darajasini oshirishi mumkin (ya'ni risklar hisobga olingan holda bank aktivlarini daromadliroq bo'lgan kreditlar va investitsiyalarga qayta taqsimlash).

ROE ko'rsatkichi formulasiga kiritilgan (va unchalik ahamiyatli bo'lmagan) korrektivalar bankni boshqarish sohasiga muammolarni aniqlash imkoniyati beruvchi tenglamani chiqarish imkoniyatini beradi:

$$ROE = (\text{Soliqlar to'langandan so'nggi foyda} / \text{Soliq to'langunga va qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar uisobga olingunga qadar foyda}) \times (\text{Soliq to'langunga va qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar hisobga olingunga qadar foyda} / \text{Operatsion daromadlar}) \times (\text{Operatsion daromadlar} / \text{Jami aktivlar}) \times (\text{Jami aktivlar} / \text{Aksionerlik kapitali})$$
 yoki

$$ROE = \text{Soliqlarni boshqarish samaradorligi} \times \text{Xarajatlar ustidan nazoratning samaradorligi} \times \text{Aktivlarni boshqarish samaradorligi} \times \text{Resurslarni boshqarish samaradorligi}.$$

Yuqoridagi holda biz bank foydasi marjasini (soliqlar to'langandan so'nggi foydaning jami daromadlarga nisbati) ikki qismga bo'ldik:

1) Soliqlarni boshqarish samaradorligi ko'rsatkichi bu bankning soliq to'lovlarini minimallashtirish uchun qimmatli qog'ozlar bo'yicha foyda yoki zararlar hamda soliqlarni boshqarishning boshqa instrumentlaridan qanchalik darajadada foydalanilganligini ko'rsatadi);

2) Operatsion xarajatlar chegirilgandan so'ng qancha daromad qolishini ko'rsatkichi bo'lgan soliqlar to'langunga qadar foydaning jami daromadlarga nisbati (ya'ni, operatsion faoliyat va xarajatlarni boshqarish samaradorligi ko'rsatkichi).

Bank aktivlari daromadliligining strukturaviy tuzilishi. Shuningdek, biz aktivlarning daromadliligi ko'rsatkichini (ROA) alohida tarkibiy qismlarga bo'lishimiz mumkin:

4-jadval.

Bank aktivlari daromadliligini aniqlash¹²

Bank aktivlari daromadliligini aniqlash (ROA)	
Tenglamaning tarkibiy qismlari	Tarkibiy qismning mohiyati
Jami foizli daromad / aktivlarning o'rtacha miqdori	Aktivlardan olingan daromad
foizli xarajatlar / aktivlarning o'rtacha miqdori	Aktivlarga yo'naltirilgan aktivlar qiymati

Mobilizatsiyalashgan pul mablag'larini banklar mijozlarni kreditlash uchun va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash uchun foydalaniladi. Bankning aktiv operatsiyalarida asosiy o'rinni ularning kredit yoki ssuda operatsiyalari egallaydi.

Akseptli operatsiyada bank o'zi akseptlashtirayotgan vekselni ishonchli mijozga chiqarish huquqini beradi. Ya'ni berilgan veksel bo'yicha o'z hisobidan

¹² Jarkovskaya E.P. Bankovskoe delo. Uchebnik.- M.,OMEGA-L, 2013.-440 s

to'lovini kafolatlaydi. Shunday aksept kreditdan foydalanayotgan mijoz veksel haqini to'lash uchun tegishli summani bankka to'lash majburiyatini oladi.

3.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekiston bank tizimida aktiv va passiv operatsiyalarning rivojlanishi

O'zbekistonni mustaqil davlat maqomida rivojlanishi sharoitida tub iqtisodiy iclohotlapning ko'lami yildan-yilga kengayib respublikada yangi milliy iqtisodiyot asoslari yaratildi va rivojlantirildi. Totalitarizm va xarajatli boshqarish o'rniga mamlakatda bozor munosabatlari tizimi samarali faoliyat ko'rsatmoqda, ko'p tarmoqli xo'jalik rivojlanmokda, iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilishi kuchaymoqda, uning infratuzilmalari tarkibida katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda va bular natijasida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonlari takomillashib bormoqda.

Ushbu muvaffaqiyatlar davlatimizning faol islohotchilik roli bilan belgilangan, u iclohotlapning dastlabki bosqichlarida bosh islohotchi bo'lib, tarkibiy o'zgarishlarga va iqtisodiyot real sektorining rivojlanishiga yo'naltirilgan ustuvorliklarni izchil amalga oshirdi.

Bunda asosiy e'tibor eksportga yo'naltirilgan va bazaviy tarmoqlarda, kichik va o'rta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratildi. Bu jarayonda bank-moliya tizimidagi aktiv va passiv operatsiyalari alohida ahamiyatga ega bo'lib, u katta hajmdagi kreditlarni iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari - neftgaz, kimyo, metallurgiya, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi, transport va boshqalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish yo'li bilan mamlakat iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirishda faol ishtirok etdi.

Bank sektori aktiv va passivlarini boshqarishga nisbatan bunday yondashuv tufayli ko'plab eksportga yo'naltirilgan va importning o'rnini bosuvchi xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi qo'shma ishlab chiqarishlarni barpo etishga erishildi. Respublikamiz don va energetika mustaqilligini ta'minlashga

erishdi, bu mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishining haqiqiy mustaqilligining asosi bo'ldi.

Bundan tashqari, respublikamiz uchun yangi bo'lgan tarmoqlarning asosi yaratildi - Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Asakadagi "UzDEUavto" zavodi, Qizilqum fosforit zavodi va boshqalar ishga tushirildi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonidagi yangi bosqich kechmoqda, uning asosiy mazmuni respublikada iqtisodiy va siyosiy hayotni har tomonlama erkinlashtirishdan iborat. Erkinlashtirishning ushbu jarayonlari asrlar chegarasida, yangi asr bo'sag'asida mamlakatimizdagi barcha o'zgarishlarning asosiy negizi, bog'lovchi bo'g'ini bo'ldi²¹.

Shu bilan birga O'zbekistonda iqtisodiy sohaning erkinlashuvi bevosita davlatning tartibga soluvchi rolining izchil qisqartirilishi va shunga mos ravishda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning erkinligi va o'z ishlab chiqarish faoliyatining natijalari uchun javobgarligining kengaytirilishi bilan bog'lanadi.

Shu bilan bir vaqtda, milliy iqtisodiyotni erkinlashtirishning yuqorida ko'rsatilgan barcha qismlari bajarilishini ta'minlashning asosiy zamini bo'lib, bank tizimining faol va samarali faoliyati hisoblanadi va u hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida, birinchi navbatda, yuqori samarali bank menejmenti faoliyatini yo'lga qo'yish bilan belgilab beriladi.

Bank menejmentiga qo'yiladigan talablarning xususiyatlari haqida to'xtalib, shuni ta'kidlash lozimki, islohotlar muammolari bank ishi rivojlanishi hozirgi bosqichida bir tomondan, bank ishida menejmentning xalqaro tajribasidan olingan ma'lumotlarni tezda o'zlashtirish zarur bo'lsa, ikkinchi tomondan, bank ishining o'zi tub o'zgarishlarni boshdan kechirish jarayonidir. Respublika tijorat banklarida yangi menejmentning vujudga kelishi omillarning ikkita guruhi bilan belgilanadi. Birinchi guruh bank tizimini icloh qilishning umumiy jarayoni bilan, ikkinchi guruh esa, banklarni o'zlarining ichki sa'y-

²¹ Karimov I.A. «Bizning oliy maqsadimiz - Vatan mustaqilligi va ravnaqi, xalqimiz erkinligi va farovonligi: Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy MajlisiI sessiyasida so'zlagan nutqi. //Xalq so'zi, 2000 yil 22 yanvar.

harakatlari bilan bog'liq. Buning uchun bank tizimida islohotlar jarayonini izchil amalga oshirish lozim.

Chunki iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda bank tizimining roli kuchayayotgan bir sharoitda, ushbu sohaning yanada erkinlashtirilishi va isloh qilinishi muhim ahamiyatga ega. Bank sohasida amalga oshiriladigan islohotlarning asosiy mohiyati va mazmuni sifatida iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishiga samarali ta'sir ko'rsatish, inflyatsiya darajasini yanada pasaytirish, bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, banklarning investitsion jarayonlarni faol ishtirokchilari sifatida vujudga kelishiga ko'maklashish, moliya bozorida sog'lom va erkin raqobatni shakllantirish, izchil va oqilona pul-kredit siyosatini olib borish bilan belgilanadi²².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 21 martdagi "Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida va Vazirlar Mahkamasining qator maxsus qarorlarida asosiy e'tibor banklar tomonidan aktsiyadorlar va aholining bo'sh turgan mablag'larini qo'shimcha ravishda jalb qilish hicobiga sarmoya bazasini mustahkamlash va iqtisodiyotning real sektorini kreditlash, ularni investitsiya jarayonlarining asosiy bo'g'iniga va korxonalarining haqiqiy sherigiga aylantirish bo'yicha imkoniyatlarini kengaytirishga qaratildi. Shundan kelib chiqqan holda, bank tizimini isloh qilish dasturining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- xususiylashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va aktsiyalashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish;

- xususiy banklarning rivojlanishini yanada rag'batlantirish va ishlab turgan aktsiyadorlik banklarining ustav sarmoyalariga xususiy sarmoyani jalb qilish;

- korporativ boshqaruv va ichki nazorat tizimini takomillashtirish;

- ustav sarmoyalarini oshirish va bozor moliyaviy vositalari yordamida resurslarni jalb etish yo'li bilan banklarning moliyaviy bazasini mustahkamlash;

²² Муллажаанов Ф. Банковская система Узбекистана на рубеже тысячелетий. // Рынок, деньги и кредит.

- aktivlar sifatini yaxshilash.

Bir vaqtning o'zida kichik va o'rta biznes, xususiylashtirish va iqtisodiyotning butun mavjud sektorini moliyalash tizimi yanada amaliy va samarali bo'lishi lozim. Pirovardida, aynan u butun bank tizimining keyingi faoliyatini belgilab beradi. Sog'lom raqobat muhitining yaratilishi samarali bank menejmentining vujudga kelishiga ta'sir etuvchi muhim omil hisoblanadi.

Moliyaviy yangiliklar agentligi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar jarayonida tijorat banklari rahbar xodimlarining e'tibori aynan mana shunga qaratildi²³. Bankirlarning aksariyat ko'pchiligi (92%) raqobatni bank faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil deb hisoblaydi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, bunda bank xodimlarining ancha kam qismi (faqat 60 foizi) o'zini raqobat kurashining bevosita ishtirokchisi sifatida his qildi. Bu hol, ayniqsa, mijozlar sonini oshirish, yangi bank xizmatlarini ishlab chiqish va taklif qilish masalalarida banklarning to'liq mustaqil emasligidan dalolat beradi. Etakchi mavqeni egallab turgan banklarning deyarli uchdan ikki qismi (o'z xodimlari timsolida) raqobatga hal qiluvchi ahamiyat bermadi.

Shu bilan birga, bankirlarning yarmidan ko'pi nosog'lom raqobatdan himoyalash uchun qo'shimcha huquqiy hujjatlarni qabul qilish zarur deb hisoblaydi.

Ayni paytda raqobat muhitini shakllantirish bank xizmatlari bozorining alohida segmentlari bo'yicha bir maromda amalga oshirilmadi. Xususan, so'nggi yillarda aholi mablag'larini omonatlarga jalb qilish davomida olib borilgan ishlar o'z natijasini berdi va raqobat muhiti shakllanishi sezildi. Bank sektorida raqobat muhitini shakllantirish ishida tijorat banklarini xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish jarayoni katta rol o'ynaydi.

Ushbu yo'nalishda banklar aktsiyalarining mamlakatimiz va chet el fond bozorlarida muvaffaqiyatli sotilishini ta'minlovchi qulay shart-sharoitlarni yaratish, xorijiy sarmoyadorlarni xususiylashtirish jarayoniga jalb etish chora-tadbirlari qo'rilmoqda.

²³ Банкиры о банках. Итоги годового исследования. Т. // Рынок, деньги и кредит, 1/2001г.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston tijorat banklari o'z faoliyatlari davomida qator muammolarga duch keladilar, ularni xal qilish esa iqtisodiyotimizning kelajakdagi taraqqiyoti uchun muhim hayotiy masaladir. Bu muammoni birinchi navbatda, ko'pchilik bank mijozlarining qoniqarsiz moliyaviy ahvoli keltirib chiqaradi. Sir emaski, qachonlardir o'z bank tizimlarini isloh qilgan mamlakatlarning qariyb barchasi u yoki bu darajada shu muammoni xal qilish zarurati bilan to'qnashganlar.

Bank resurslarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar banklarning passiv operatsiyalari deyiladi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarning passiv va aktiv - passiv schetidagi pul mablag'larining salmog'i oshib boradi. Banklarning passiv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda katta rol o'ynaydi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklari kreditlash uchun zarur bo'lgan-kredit resurslarini tashkil qiladi.

Tijorat banklari eng avvalo har bir kredit talabi bilan murojaat qilgan mijozlar bilan ishlash uchun o'zining kredit siyosatiga ega bo'lishi kerak. Bankning kredit siyosati avvalo bank bank tomonidan sifatli kreditlar berishga hamda daromad olishga qaratilgan bo'lib kredit inspektorlari va bank boshliqlari uchun kredit berishda qaror qabul qilish vaqtida asosiy e'tiborni qaysi sohalarga va yo'nalishlarga qaratishlari kerakligi haqidagi hamda bankning kredit portfeli strukturasi tashkil etish haqidagi tavsiyanomadir. Bankning kredit siyosati bir vaqtning o'zida rasmiy nazorat tashkilotlari tomonidan tijorat banklarning kredit berish jarayonlarida yetarli extiyotkorlikka amal qilishlari bo'yicha belgilangan cheklovlarni ham o'z ichiga oladi.

“Asaka” Davlat-aktsiyadorlik tijorat bankining aktiv va passiv operatsiyalar siyosatini tashkil etuvchi elementlarni yanada yaxshi samara berishida quyidagilar yanada rivojlantirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- Maqsad hamda undan kelib chiqqan holda kredit portfelini tashkil qilish. Bu kredit turlari, berilish muddatlari, xajmlari va sifati kabilardan iboratdir.

- Har bir kredit inspektori hamda kredit qo`mitasi tomonidan kredit berish bo`yicha qaror qabul qilishda ularga yuklatilgan vakolatlar chegaralarini sinchkovlik bilan ishlab chiqish hamda belgilash.

- Kreditlarni boshqarish doirasida vakolatlarni va axborotlarni berish bo`yicha majburiyatlarni nazorat qilib borish hamda rag`batlantirish.

- Kredit talabnomalarini tekshirish, baholash hamda qaror qabul qilish amaliyoti va tartibini yo`lga qo`yish.

- Har bir kredit talabnomasiga nisbatan qo`shimcha talab etiladigan zaruriy xujjatlar va kredit yig`ma jildida saqlanishi zarur bo`lgan xujjatlar bilan ishlashda xodimlarning rolini oshirish. Bular: moliyaviy xujjatlar, aktiv va passiv operatsiyalar bo`yicha xujjatlar, kafolat xatlari va garov shartnomalari kabilar.

Miqdoriy ko`rsatkichlar bank boshqaruvining barcha sohalariga tegishlidir. Miqdoriy ko`rsatkichlarga: bank mijozlari va raqamlari soni, depozit hajmi, innovatsion xizmatlar, kredit qo`yilmalari, operatsiya va xizmatlar hajmi va boshqalar misol bo`la oladi.

Sifat ko`rsatkichlariga esa bankning daromad va harajat ko`rsatkichlari mablag`larning aylanish tezligi, operatsiyalarni amalga oshirish harajatlari va mehnat xajmi, xujjatlarni qayta ishlash kabilar kiradi. Hozirgi kunda bu masalalar kundan kunga xal qilib borilmoqda. Axborot tizimi, elektron to`lov tizimi bunga yaqqol misol bo`la oladi. Bank boshqaruvining ijtimoiy ko`rsatkichlarini uch guruxga ajratib ko`rish mumkin.

Bular:

- jamoa a'zolarining kasbiy tayyorgarligi;
- ularning mehnatga munosabati;
- ijtimoiy muammolarni farq qilish darajasi.

Banklarni innovatsion boishqarishning asosiy xususiyatlaridan yana biri, bu ma'sul masalarni xal qilishda jamoaviy usulning mavjudligidir. Hozirgi davrda bank boshqaruvining aniq yo`nalishi qanday. Moliyaviy taxlil kredit operatsiyalarining riskini kamaytirishning eng asosiy usullaridan biri mijoz

hisobotlari asosida uning moliyaviy holatini to'g'ri va yetarli darajada taxlil qilishdir. Bunda biz eng avvalo mijozdan qaysi hujjatlarni talab qilish mumkinligini va ularda ko'rsatilgan raqamlarning to'g'riligini tasdiqlanganligiga e'tibor berishimiz kerak. Hozirgi kunda korxonalar moliyaviy holatiga berilayotgan xulosalar o'z navbatida bank uchun bu ishda katta yordam bermoqda.

Tijorat bankining to'lov qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri - bu uning o'z sarmoyasi bilan ta'minlanganligidir. Bankning o'z sarmoyasi - uni moliyaviy resurslarining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi.

Bankni o'z sarmoyasining uning mablag'lari tarkibidagi roli bankning barqarorligi va faoliyatining samaradorligini ta'minlash uchun g'oyat muhimdir. Bankning o'z sarmoyasi - bu birinchidan moliyaviy resurslarning manbasidir va bu ayniqsa, bank faoliyatining boshlanish bosqichida yaqqol namoyon bo'ladi.

Bankni o'z sarmoyasining yana bir muxim vazifasi - himoya kafolatlash vazifasidir. Bu xuddi mashina buferi singari barcha og'irlikni o'z zimmasiga oladi. Har kanday vaqtda bank o'z kapitali bilan omonatlarni qaytara oladi.

So'nggi vaqtlarda pul-kredit orqali tartibga solishga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ochiq bozorda davlatning qimmatbaxo qog'ozlari bilan amalga oshiradigan operatsiyalari kuchli ta'sir ko'rsata boshladi.

Bundan tashqari, tijorat banklarining likvidligi va to'lov qobiliyatiga ta'sir etuvchi mikroiqtisodiy omillar ham mavjud bo'lib, ular sirasiga quyidagi asosiylarini kiritish mumkin: tijorat bankining resurs bazasi, qo'yilmalar sifati, menejment darajasi, shuningdek, bank faoliyatining funktsional tizimi va ushbu faoliyatning rag'batlantirilishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

I. O'zbekiston Respublikasining qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi– T.: “O'zbekiston”, 2014 y.
2. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida”gi qonun, T.: “O'zbekiston”, 1995 y.
3. O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonun, T.: “O'zbekiston”, 1996 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, Xalq so'zi, 09.01.2002 y.
5. O'zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi qonuni, 11.12. 2003 y.
6. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi qonuni. 04.04. 2002 y.
7. O'zbekiston Respublikasining «Mikromoliyalash to'g'risida»gi qonuni. 15.09. 2008 y.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.01.2009 yildagi 1045-sonli Inqirozga qarshi dastur va boshqa qo'shimcha choralar to'g'risida”gi 2008 yil 5 apreldagi Farmoni.
9. “Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. Toshkent. 2007 y. 12 iyul.
10. “Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. Toshkent. 2008 y. 27 sentyabr.
11. «Mikrofimalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent. 20.06.2005
12. «Bozor islohatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini

jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent. 14.06.2005.

13. «Tadbirkorlik sub'yektlarini xuquqiy ximoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent. 14.06.2005.

14. «Tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Toshkent. 15.06.2005.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 apreldagi «Bank tizimini yanada islox qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. «Xalq so'zi» 16.04.2005.

16. «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Xalq so'zi» 12.01.2005.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari to'g'risida»gi 2010-yil 15-dekabrdagi PQ-1442 sonli qarori.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2011 yilga mo'ljallangan investision dasturi to'g'risida»gi 1455-sonli Qarori.

19. «Pul mablag'larini bankdan tashqari muomalasini yanada qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining qarori. 05.08.2002 y.

20. «Pul-kredit ko'rsatkichlarni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining qarori. 04.02.2003 y.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi” mavzusidagi ma’ruzasini o’rganish bo’yicha o’quv qo’llanma. – T.: Iqtisodiyot. – 2012 yil.

22. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O’zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi // Xalq so’zi, 2010 yil 30 yanvar.

23. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi.

24. Karimov I.A. “Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz”. T: O’zbekiston, 2000, 17 bet.

25. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari”. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.

26. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash - bizning oliy maqsadimiz. 17- Jild. – T.: O’zbekiston, NMIU 2009. – 280 bet.

27. Karimov I.A. “Jahon inqirozining oqibatlarini yengish mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko’tarilish sari”. 18- Jild. – T.: O’zbekiston, NMIU 2010. – 198 bet.

II. Asosiy va qo’shimcha adabiyotlar.

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvarda bo’lib o’tgan qo’shma majlisidagi «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda

2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 yanvarda bo'lib o'tgan majlisidagi «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent – «Iqtisodiyot» - 2010 yil.

2. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. T.: “Moliya” 2012, 510 b.
3. Rashidov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. T.: TDIU, 2010. 398 b.
4. Гвозденко А.А. Страхование. Учебник.– М-ТК, Велхи, 2012.-464 с.
5. Жарковская Е.П. Банковское дело. Учебник.- М.,ОМЕГА-Л, 2013.- 440 с
6. Лаврушин О.И. Банковское дело. Учебник.-М., Финанси и кредит., 2012 г., 654 с.
7. Миляков Н.В. «Финанси». Учебник.-М., ИНФРА-М, 2010.-543 с.
8. «Инновационное развитие: Экономика, интеллектуальные ресурсы, управление знаниями» Под редакцией Б.З Милнера, Инфра-М, 2010 г.
9. Дорофеев В.Д., Шмелева А.Н. «Инновационный менеджмент» Учебное пособие для вузов. -М: «Феникс» . 2009 г .

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. – T.: “O'zbekiston”, 2011.yil.
2. O'zbekiston Iqtisodiy axborotnomasi. /№ 3/2011 y.
3. Статистическое обозрение Республики Узбекистан за 2006-2011 годы. Т., 2012 г.

IV. Internet saytlari.

1. <http://www.cer.uz> «Ekonomicheskoe obozrenie» jurnalining sayt
2. <http://www.google.com> “Ma’lumotlar qidiruv sayti”
3. <http://www.uza.uz> “O’zbekiston axborot agentligi” sayti
4. <http://www.stat.uz> Davlat Statistika qo’mitasining sayti
5. <http://www.minjust.uz>
6. www.bank.uz
7. www.ipotekabank.uz